

NASHR KO'RSATKICHI 1404



URGANCH  
INNOVATION  
UNIVERSITETI



OGAHIY

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT



URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI

Ijtimoiy tarmoqlari va manzili



@urganch\_iu



@uriu.uz



(91) 436-20-22  
(90) 436-20-22



@uriu



Xorazm viloyati Urganch  
shahri "Mustaqillik" MFY  
Gurlan ko'chasi, 2-uy



2024 (7-8)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy  
**JURNAL***

**2024-yil 7-8-son**

**Urganch-2024**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas’ul kotib:**

*U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Tahrir hay’ati:**

*Z.Do’simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G’ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*S.E.Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.I.Yo’ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD).*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*Ch.A. Sabirova – Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent*

*D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*O’I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.*

*Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*N.R.Matyakubov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

*B.M.Satimov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.*

*B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).*

*R.Y.Ro’ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).*

*A.R.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog’iston).*

*J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*

*J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*O.Radjabov – Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.*

**ISSN 3030-3206**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.  
№ 7-8 (17), Urganch innovatsion universiteti, 2024-yil.

**MUNDARIJA:**

**TARIX**

<b>S.NAVRUZOV.</b> Xonqa hokimining Hindistonga elchilik safari. ....	4
<b>U.BEKMUHAMMAD.</b> Yevropada o‘qigan birinchi irrigator .....	16
<b>M.SALIMOV.</b> Nizomiddin Oxund Salimov hayoti va faoliyati. ....	23

**FALSAFA**

<b>M.XAJIYEVA.</b> Ma’naviyat va ma’rifat chashmasi . ....	28
<b>Sh.BEKNAZAROV.</b> Talaba-yoshlarda estetik didni shakllantirish hamda rivojlantirishda tasviriy san’atning o‘rni va roli. ....	32

**FILOLOGIYA**

<b>A.OYDIN, U.BEKMUHAMMAD.</b> Samoylovichning Xorazm folklorshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi. ....	37
<b>G.XUSAINOVA.</b> “Davlat tilida ish yuritish” fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan keys va texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari. ....	46

**IQTISODIYOT**

<b>Q.JUMANIYAZOV.</b> Tijorat banklarining kreditga layoqatlilik darajasini oshirish . ....	52
<b>S.YO‘LDOSHEVA.</b> Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. ....	56
<b>J.QURBANOV.</b> Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari. ....	60

**PEDAGOGIKA**

<b>N.MATYAKUBOVA.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro PIRLS tadqiqoti topshiriqlari. ....	64
--	----

**SAN’ATSHUNOSLIK**

<b>S.SOBIROV.</b> Tasvirdagi Ogahiy. ....	72
---	----

**TARIX****XONQA HOKIMINING HINDISTONGA ELCHILIK SAFARI**

**Saparboy  
NAVRUZOV**  
Urganch davlat  
universiteti dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi

**UO‘K 574.510**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Xiva xonligi davrida Hindistonga yuborilgan elchining safar tassurotlari tadqiq qilingan. Maqlada elchining Hindistonga borishi va qaytib kelishi bilan bog‘liq jarayonlar yoritib beriladi.

**Аннотация:** в статье рассматриваются путевые впечатления посла, отправленного в Индию во времена Хивинского ханства. В статье описаны процессы, связанные с поездкой посла в Индию и его возвращением.

**Annotation:** this article examines the travel impressions of the ambassador sent to India during the Khiva Khanate. The article describes the processes related to the ambassador's trip to India and his return.

**Kalit so‘zlar:** Xiva, Hindiston, xonlik, elchilik, do‘stona aloqalar, safarnoma.

**Ключевые слова:** Хива, Индия, ханство, посольство, дружеские отношения, рассказ о путешествиях.

**Key words:** Khiva, India, khanate, embassy, friendly relations, travelogue.

“Dunyoning bir qismida ikki davlat, ikkita monarxiya yonma-yon hukm surib, ahyon-ahyonda bir-biriga qiziqsinib, har doim ham qo‘shni sifatida geografik hamda siyosiy jihatdan yaqinliklarining ahamiyatini his qila olmagan holda, bir-biriga kamroq qiziqishi bejiz edi” [1].

XIX asr II yarmi yirik kapitalistik davlatlar orasida dunyoni bo‘lib olish va mustamlaka qilingan hududlarni qayta taqsimlash uchun kurash davri bo‘ldi. Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklariga Angliyaning bosqinchilik xavfi kuchaya bordi. Rus qo‘shinlari XIX asrning 70-90-yillarida O‘rta Osiyoga chuqur kirib, Kaspiyorti viloyatini istilo qilgach, Angliya va Rossiya manfaatlari bu hududda qat‘iyroq to‘qnashdi. Nihoyat, O‘rta Osiyo uchun 40 yil davomidagi kurash, har ikkalasini kelishuvga olib keldi [2].

Podsho Rossiyasining Qozog‘iston hamda O‘rta Osiyoga kirib borishi xonliklarga katta xavf tug‘dirardi. Shu bois Xivada ham bu xavfning oldini olish uchun siyosiy choralar ko‘rildi. Xiva xonligi podsho Rossiyasi tomonidan istilo qilinishidan ancha oldin rus matbuotida xonlikning Hindistonga general-gubernator Norsbruk huzuriga elchi yuborgani [3] va Xivani rus bosqinchiligidan

himoya qilishda Buyuk Britaniya yordamiga muhtojligi xabar qilingandi. Biz hikoya qilmoqchi voqealar tafsiloti quyidagicha:

Sharqshunos olim Aleksandr Kun general Kaufmanning topshirig'i bilan xonlikda faoliyat yuritgan ilmiy ekspeditsiya paytida tasodifan Xonqa qal'asi hokimi bilan suhbatlasharkan, Aminboy Hojining Xiva karvoniga boshchilik qilganini eshitib, Hindiston safarining tafsilotlarini to'laligicha yozib olgach, uni rus matbuotida e'lon qilgan. Aleksandr Kun Aminboy Hojining shaxsi yuzasidan saroyda, aslzodalar va oddiy aholi orasidagi obro'yi tufayli yig'ilgan ijobiy fikrlarni ta'kidlarkan: "U kishi saroyda va xonlikda birdan bir alohida hurmat va e'tiborga loyiq inson! Xonqa bekligida fuqarolar undan hayiqadilar, fe'l-atvoridagi insoniylik, ichki olamidagi rang-baranglik, go'zal axloqiy qiyofasi ila cheksiz hurmatga ega". Aminboy hoji suhbatda o'zi va ajdodlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni bayon qildiki, bu nafaqat sulolaviy ahamiyatga molik, balki Xiva xonligi diplomatiyasida ochilmagan sahifalar mavjudligini ham ko'rsatadi.

"Oldingi xonlar ham mening otamni Hindiston va Afg'onistonga bir necha bor elchi qilib yuborganlar. U kishi vafotidan keyin hukumat ishlarini bajarish menga yuklatildi. Shu arafada Xonqa bekligiga hokim qilib tayinlandim," – deya elchi sifatida Hindiston safarining barcha tafsilotlarini hikoya qilgandi.

Suhbatni davom qildirar ekan, Aminboy hoji: "Meni Xiva xoni Sayid Muhammad Rahim Bahodirxon II o'z huzuriga chaqirib, Seni inglizlar oldiga elchi qilib yuboraman. Ollaqulixon davridanoq biz ular bilan do'stona munosabatlar o'rnatganmiz. Lekin ko'pdan ular haqida hech nima bilmaymiz. Shu bois senga elchilik vakolatini yuklayman. Ularning bizga bo'lgan munosabatlarini aniqlaysan va biz yozgan xatni eltib, javobini keltirasan.

Agarda ruslar bilan munosabatlar haqida so'rab qolishsa, inglizlar ra'yiga qarab ish tutishimizni bildir" – degandi hukmdor.

Hukmdor karvonga yo'l xarajatlari uchun xazinadan 100 tilla pul berilishi hamda sovg'a-salom sifatida sarpolar olib ketilishini topshirdi.

Hukmdor qabulidan 4-5 kun o'tgach, karvon Hindiston tomon yo'lga chiqdi. Safarga otlanganlar tarkibida 25 nafar xizmatchi, 15 ta tuya, 23 ta ot va ikkita eshak bor edi. Muharram oyining 10-kuni karvonimiz bilan Xivadan 4 farsang masofadagi "Nayman" mavzeyidagi Madaminxon uy hovlisida tunadik," [4] – deb ko'rsatdi karvonboshi. Uzoq safarga otlanganlarning do'st-yorlari, qarindosh-urug'lari kuzatib qolish uchun "Nayman"da to'planishdi. Bir kun davomida yo'l tayyorgarligi ko'rildi. Karvonning navbatdagi yo'li qumloq orqali bo'lib, karvondan uch "tabiiy geografik" kechuvni bosib o'tish talab qilinardi. Shu bois yo'lga suv zaxiralari tayyorlandi. To'rt nafar tuya faqat suv tashish uchun

ajratildi. Har bir tuyaga ikkita “to‘rsiq” (teri idish, mol xomi) 25-30 ko‘za suv yuklandi.

Ma‘lumki, karvon safari paytida karvon a‘zolari bilan birga, otlar hamda ikkita eshak kunda ikki bor sug‘orilgan. Bu ish ertalab tongda hamda yarim tunda qilingan. Karvon safidagi tuyalar esa sardobalar, quduq-chashmalarga kelib qolganda sug‘orilgan, xolos. O‘z sarguzashtlarini davom qildirar ekan Aminboy Hoji: “Biz Nayman mavzeyidan chiqib, uchta “kechuv”ni bosib o‘tgach, Saxija nomli suv chashmasiga kelib qoldik. Tunash uchun qo‘nganimiz hamon, oldimizga turkman takalari o‘ramiga sotish uchun urganchlik savdogar Omonshix karvoni to‘n, chopon, guruch va boshqa oziq-ovqatlik, xaridorgir mollar olib kelgandi. Biz qo‘ngan “Saxija” chashmasi atrofi qalin saksovulzor edi”.

Elchilik karvoni qisqa muddatga qo‘nib dam olish uchun tunagan Saxija maskani ayniqsa, yurtimiz ahli uchun qadrli va ahamiyatlidir. Aynan shu joydan Xorazmga saksovul ko‘mirini yoqilg‘i sifatida tuyakash turkman o‘tinchilari yetkazib bergan.

Xiva elchilari oldida yana uzoq va qiyin masofadagi 7 ta “kechuv” turgandi. Karvonboshi bu masofani ko‘zlarkan, yo‘l uchun 7 ta tuya yuki hisobida suv tayyorlashni buyurdi. “Saxija”da bir kecha tunagan karvon yana yo‘lga tushdi. Karvon endigina yo‘lga tushib, birinchi “kechuv”ni o‘tgach, yo‘l ikki tarmoqqa bo‘lingandi: birinchisi Marvga, ikkinchisi Axaltaka turkmanlari o‘ramiga olib chiqardi. Bu yo‘llar kesishmasini mahalliy tilda “yo‘l ayriti”, “Xiva ko‘miri” yoki ko‘mir yo‘li deb atashgan.

Qum barxanlari orasidagi to‘s-to‘polon, to‘zon, shamol va bo‘ronlarga qaramasdan, karvon Mirza-Chilla qudug‘ida to‘xtadi. Mirza-Chilla sardobasida to‘rtta quduq bor ekan. Sardoba atrofida ko‘chmanchi aholidan deyarli nom nishon yo‘q edi. Aminboy Hoji nazarida “qumlikdagi bu hudud mutlaqo egasizday, na turkman ko‘chmanchilariga, na Xiva va Buxoroga tegishliligi haqida biron-bir darak topish amri mahol edi”.

Karvonboshi yo‘l xavfini yaxshi idrok qilur ekan, “karvonimiz bu izziz yo‘llarni deyarli tinch, osoyishta bosib o‘tardi. Qaroqchilar yoki bizga dushmanlik qiluvchilarning xavfi kuzatilmagandi”, deb yozgandi.

Qiziqarli yo‘l hodisalari va ularni ifodalovchi ko‘plab geografik, etnografik materiallarga boy suhbatini davom qildirar ekan elchi, o‘zi kuzatgan “Saxija”dagi karvon bilan bo‘lib o‘tgan hodisani bayon qiladi: “Endi yo‘lga chiqib yurganimiz hamon, bizga yetti kishidan iborat taka urug‘iga tegishli qaroqchilar guruhi ro‘baro keldi. Ular Saxijada ko‘mir tayyorlovchilarning chorva mollarini talab haydab olib ketayotgan edilar.”

Yo‘lovchilar to‘xtagan navbatdagi maskan “Xon qudug‘i” edi. Darhaqiqat, bu chashma “Xon qudug‘i” deyilishi bejiz emasdi. Xiva xoni Madaminxonning



1855-yilgi Marv yurishida qazdirilgandi. Qoraqumning bu mavzeyida ko'chmanchilik qilayotgan taka turkmanlari o'z chorvasini "Xon qudug'i" atrofida, saksovluzor o'tloqlarda boqishgan. Karvon yana ikkita "kechuv"ni bosib o'tdi. Elchilik karvoni endilikda taka turkmanlarining Sayidliboy xonadonida mehmon bo'lishdi. Sayidliboy avlodlari Marv daryosining quyi oqimida joylashgandi. "Jo'shqin" mavzeyi atroflarida qo'shni sifatida taka turkmanlarining Omonshix tirasi ham yashardi. Ular 200 chodirlik edi. Aminboy Hoji Qoraqum sahrosida qiyin tabiiy sharoitda yashab kelayotgan chorvador turkmanlarning jasoratiga tan berar ekan, yo'l bo'yi safar sharoiti taqozosi bilan mezbonlik qilgan turkman aholisining mehmondo'stligiga tahsinlar aytdi. Karvonboshi safar davomida taassurotlarini ta'riflarkan: "Biz joylashgan maskanda Marv daryosi oqib o'tadi. Qisqa davrga bo'lsa ham, qirg'oqbo'yida qo'sh tashladik. Marv daryosi Hirot, Xazar va Barbari tizma tog'laridan sizib chiqqan chashma-buloqlardan va tog' irmoqlaridan oqib keladigan suvlardan shakllangandir. Odatdagiday yilning turli davrlarida Marv daryosi Xorazmning Shovot kanaliga o'xshab ma'lum davrlarda suvi serob bo'lsa, ba'zi davrda suvi kamayardi ham. Marv daryosining Shovot kanalidan farqli yana bir tomoni qirg'oqlarining balandligida, lekin bunday holat dehqon uchun noqulaydir. Shu sabab mahalliy aholi to'g'on ko'tarib suv sathini oshirish bilan dehqonchilik qilishgan. Karvon Sayidliboy qavmida mehmon bo'lib hordiq chiqargach, taka turkmanlar xoni Qavshutxon dargohiga yo'l oldi.

Qavshutxon qal'asi 15-20 yillar oldin taka turkmanlarining Afg'on qajarlari bilan bo'lgan urush davrida bunyod etilgan.

Ma'lum bo'lishicha, taka turkmanlari Marv qal'asi o'ramini egallar ekan, avvalo, notinch hayoti va siyosiy qarashlarida mutlaqo erkinligi hamda hech qanday tashqi hokimiyatni tan olmasliklari, hech kimga soliq to'lovlari bermasligi, faqatgina yuzaki tarzda goh Xivaga, goh Buxoro amiriga, Hirotida esa afg'on amiri yoki sardorlar hukmiga ta'zim bajo keltirishlari odatiy holdir.

Karvonboshi Aminboy Hojining taka turkmanlari orasida bir necha kun qolib ketishi takalar haqida qiziqarli ma'lumotlarni to'plashga imkoniyat yaratdi. Jumladan, Marv takalarining umumiy soni 50 000 chodirlik. Sardor Qavshutxon haqidagi ma'lumotlar yanada qiziqarli. Uning oilasi – 4 nafar xotini va bola chaqalari bilan 6 ta chodirda o'rtnashgan [5].

Sardor qo'rg'onida kelib-ketuvchilar uchun har doim o'tov mehmonxonalari mavjud. Taka turkmanlari yoz mavsumida o'z ekinzorlarida mashg'ul bo'lar, qish oylarida qo'rg'on bo'ylab guruh tarzida 100 dan ortiq chodirlarda qishlardilar. Qavshutxon qal'asida bir necha savdo do'konlari bo'lib, bozor anchagina maydonni egallardi. Bu tashqaridan xuddi Xiva bozorlariga

o‘xshasa-da, savdo hujralari batartib tuzilgandi. Haftaning ma’lum kunlari bozor savdosi bo‘lib, bu yerga Buxoro, Xiva va Hirotidan kelgan savdogarlar turkman takalari uchun zarur xaridorgir mollar: oziq-ovqatlik, qand, choy, kiyim-kechaklar va turli kiyimlik gazlamalar hamda xo‘jalik uchun zarur anjomlar keltirib sotishgan. Mahalliy aholidan esa, chorvador hunarmandlar tayyorlagan jun, jun matolari, chorva mollari, gilam va kigiz kabi buyumlarni sotib olishardi.

Sayyoh sifatida Aminboy Hoji e’tiboridan yana bir narsa chetda qolmagandi. “Taka turkmanlarining ko‘pchiligi inglizlarning qurol-aslahalari bilan qurollanganligiga guvoh edi. Bu qurollarning afg‘on hududlariga kirib kelishi sabablari Hirot savdogarlarining ayanchlilik bo‘lsa, yana bir tomoni taka turkmanlarining bosqinchilik, talonchilik oqibatidir. Kuzatuvchi nazarida “oqar suv mavjud bo‘lgan ariq va kanallar bo‘yida paxtachilik bilan shug‘ullanayotgan dehqonlarning, ayniqsa, tut daraxti o‘stirishlari “Xiva dehqonchiligini eslatardi”. Qavshudxon haqida qiziqarli materiallar to‘plangan bo‘lishiga qaramasdan, Aminboy hoji Qavshudxon bilan uchrashmagan. Nihoyat xivaliklar karvoni sardor Qavshudxon dargohi bilan xayrlashib, Marv daryosiga qurilgan to‘g‘on uzra qo‘sh tashladi. Aminboy Hoji bergan geografik va tarixiy ma’lumotlar Marv vohasidagi XIX asr ikkinchi yarmiga doir cho‘l sharoitidagi iqtisodiy hamda qaltis siyosiy jarayonlarni davr nuqtayi nazaridan anglab yetishga, tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi. Karvonboshi to‘g‘on bilan bog‘liq xotirasida “To‘g‘on va Marv orasidagi masofani 8 tosh yo‘l” deb ko‘rsatgan. To‘g‘on joylashgan maskanda Xiva karvoni Hakimboy ismli chorvadornikida tunashdi. Karvonboshi Marv daryosida qurilgan to‘g‘on voqeasini eslar ekan: bu to‘g‘on daryoning ayni shu joyida suvni ikki qismga bo‘lish uchun qurilganligini va u bilan bog‘liq ma’lumotlarni (jumladan: to‘g‘on uzunligi 40 gaz, eni 30 gazdir) keltirgandi. To‘g‘onning har ikkala tomonida deyarli 500 chodir qurilgan bo‘lib, ularda Taka turkmanlari istiqomat qilar, to‘g‘onni qo‘riqlash xizmati ham ularga yuklatilgandi. Qavshudxon dargohidan chiqib o‘z safarini davom qildirar ekan, karvonni Qavshudxonning yigitlaridan 15 qurolli sarboz qo‘riqlab bordi. Endilikda yo‘lovchilar oldida sariq turkmanlari maskani turgandi. Sariq turkmanlarining katxudosi Suyunxon qo‘rg‘oni aynan shu qal’ada joylashgan. Marv vohasi hududlarida Sariq turkmanlari 10 000, Taka turkmanlari esa 50 000 chodirdan iborat.

Aminboy hoji safar xotiralarida Yo‘lo‘tan mavzeyida Aqmurodboyning uyida to‘y o‘tkazish sababli mehmon sifatida ishtirok qilganligini bayon qiladi. “Aqmurodboy o‘g‘lini sunnat qildirgandi. To‘y tomoshalarida chopar poygasi o‘tkazildi. Yutuqqa katta sovg‘alar qo‘yildi. Mehmonlar safida Aminboy hoji ham to‘yni kuzatar ekan, uning nazarida to‘yda ishtirok qilgan “Turkman ayollari iyak va og‘izlarini o‘rab olganicha boshlarining yuqori qismini ochiq qoldirishlaridan”

ajablangandi. Xiva karvoni Yo‘lo‘tandan chiqib Afg‘on chegaralariga yaqinlasharkan, yo‘l xavfidan hayiqqan karvonni Suyunxonning 25 kishilik sarbozlari kuzatib keldi. Yo‘l ancha xavfli, xatarli edi. Yo‘lo‘tandan to Bandi dargohigacha turkmanlarning barcha qo‘ningohlarida karvonboshi Xivadan xon ajratgan to‘n, chopon, po‘stin va matolar, choy, qand, guruch kabi oziq ovqat mahsulotlarini mahalliy urug‘ oqsoqollari va sardorlariga xon sovg‘asi sifatida ulashdi. Qoraqum uzra oylab yo‘l bosgan Xiva karvonini Bandi dargohida Abdixon sarbozlari kutib oldi. Qarshimizda Ko‘shk qal‘asi o‘z salobatini namoyon qilardi. Bu yerlar Boyqiz tog‘lari etagida yastanib yotarkan, turkman cho‘llarini afg‘on hududlaridan ajratib turgandi. Biz kirib kelgan “Ko‘shk” qal‘asi paxsa loydan bino etilgan. Aholining ko‘pchiligi chodirlarda istiqomat qiluvchi ko‘chmanchi jamshidlardir. Ular to‘rt urug‘ bo‘lib, 1) jamshidlar, 2) xazarlar, 3) taymarlar va 4) presquylardan iborat. Jamshidlar turmush tarziga doir etnografik ma‘lumotlarda: Aminboy hoji turar joylari qoraqalpoqlar kulbalariga o‘xshash, kiyim kechaklari esa, jun gazlamadan tayyorlangan, ayniqsa, bosh kiyimlaridagi o‘xshashlik xuddi xivaliklar bosh kiyimidan farq qilmaydi”, deb eslaydi Aminboy hoji. Jamshidlar “yetti ming chodirdan iborat” [6]. Xiva elchisi jamshidlarning xo‘jalik hayotiga e‘tiborini qaratar ekan, ularning o‘troqlikka o‘tmaganligini ta‘kidlaydi. “Ko‘shk qal‘asi atroflaridagi baland, oppoq qorli tog‘lar va ularning yon bag‘ridagi yam-yashil o‘simliklar dunyosi go‘yo chiroyli pistazorlar bilan o‘ralganday, bamaylixotir yo‘lovchi diqqatini o‘ziga tortardi. Qo‘rg‘on atroflari ekinzor dalalar va mevali bog‘lardan iborat. Tabiiyki, jamshidlar dehqonchilik xo‘jaligi hali sun‘iy sug‘orishni bilmasdi. Ularning maskanida yerda ishlovchi dehqon qish mavsumida o‘z yerlarida guruhlashib, yoz paytlarida esa, tog‘ daralari va yaylovlarda ko‘chmanchilik qilishgan. Shu boisdan yarim chorvador mahalliy aholi xorazmcha “ariq”, “salma”, “yop”, “qazuv”, “begor”, “afgor” kabi sug‘orma dehqonchilik tizimini ko‘rsatuvchi tadbirlardan mahrumdir. Darhaqiqat, Xiva va Hindiston diplomatiyasining ba‘zi noaniq sahifalarini jamshidlar haqidagi qiziqarli va yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirar ekan, Aminboy hoji, Xiva xonlarining yaqin va do‘stona qo‘shnichiligi bois, 1841-yil Ollaqulixon amri va irodasi ila bu qabilaga o‘zlari istiqomat qilayotgan hududlarda siyosiy-iqtisodiy va milliy bosim oqibatida Xorazm hududiga joylashtirilishi “Xiva va afg‘on qo‘shnichiligida yangi bir sahifani ochgandi” [7].

Karvonni Ko‘shk qal‘asida Madiquli oqsoqol kutib oldi. “Ikki kun dam olib, hordiq chiqargach, yana yo‘l safariga otlandik. Tuyalardagi yuklar otlarga ko‘chirildi. Marv daryosi qirg‘oqlari bilan xayrlasharkanmiz, safarni davom qildirdik. Ko‘shk qal‘asida biz safarga suv g‘amlamadik, chunki karvon yo‘li endilikda turli buloqlar-u, chashma quduqlarni yoqalab yurishga to‘g‘ri kelgandi.

Ko'shkdan Hirotgacha 8 vyorst masofadagi yo'l faqat tekislik bo'lib, tevarak atroflari deyarli o'tloqzor edi. Yo'l bo'ylab yurar ekanmiz asta-sekin toqqa ko'tarila bordik. Tog' yo'li, tevarak-atrofi, baland tog' tizmalarini oppoq qor bosgan edi". Karvon "Afg'on hududlariga kirib kelarkan, Hirot viloyatiga qarashli Haydarali qishlog'ida tunadi. Bu maskan yo'lovchilar uchun, butunlay o'zgacha, hatto uy tomlarining tepalari ham minorasimon bo'lib, odatdagiday ravon, tekis emasdi". Karvon tunda tezlik bilan yurib, shaharga kuppa-kunduzi kirib borishni rejalashtirgandi. "Qo'shni davlatlar orasidagi mavjud qoida va odatlarga binoan elchilik karvoni qo'shni davlat hududlarida kutib uchrashuvga chiqmagunlarigacha mezbonlar huzuriga chiqilmaydi. Shu bois, bizni Hirot tomondan hukmdor vakillari kutib oldi [8]. Hukmdor Sheralixonning o'g'li Yoqubxon sardorning mulozimi Ota Muhammadshoh 40 nafar sarbozlari bilan bizga peshvoz chiqdi". "Bizni xon bog'i atalmish "Bog'idasht"ga joylashtirishdi. Bu jannatmakon bog' nimasi bilandir Xivadagi mashhur Gandimiyonni eslatardi. Biz endigina yuk-u narsalarimizni taxlab, joylab ulgurmasdanoq yemakxonaga taklif qilishdi. Ziyofatda Sheralixonning xizmatchisi Nazar devonbegi kosagullik qildi. "Ertasiga meni Yoqubxon sardor qabuliga olib borishdi. Elchilik audiyensiyasida xonimiz Sayid Muhammad Rahim Bahodirxonning Yoqubxonga hamda hukmdor Sheralixonga atalgan sovg'alarini topshirdim" – deya xotirlaydi Aminboy Hoji o'z esdaliklarida. "Hirotidagi Yoqubxon sardor saroyini urush paytida inglizlar bosib olgach, eroniy ustalar qaytadan qurib bitkazishgan. Saroyga ro'para tarzida galereya qurilgan va unga shishali oynalar o'rnatilgan. Amirzoda Yoqubxonni biz hovuz bo'yida suhbatlashayotgan chog'ida ko'rdik. Ushbu bino derazalari xivaliklar uchun butunlay yangilik bo'lib, ko'tarma shishali edi". Xiva elchilari Hirotida 18 kun qolib ketdi. Ayni damda kuzatuvchi sifatida Aminboy hoji temuriylar zamonasini dunyoga keng yoyib, endilikda o'rta asr shuhratini eslatuvchi Hirot bilan anchagina tanishib ulgurgandi. "Hirot shahri endilikda deyarli yuz tanob maydonni egallarkan, o'rta asrchilik namunalari o'zida mujassam etardi. Bu taxminan Xiva xonligidagi Doshhovuz qal'asi joylashgan maydonga tengdir. Devorlari pishiq g'ishtdan qurib bitkazilgan, tevarak atrofi esa, o'rta asr shaharsozlik xususiyatlarini o'zida saqlagan, mudofaa devori atroflari chuqur qazilib, suvga to'lg'azilgan handaqlar bilan o'ralgan edi. Shaharni 8 ming sarbozlik piyoda va 1000 kishilik otliq qo'shin himoya qiladi. Shahar tashqarisida qo'shimcha 3000 otliqdan iborat mudofaani ta'minlaydigan garnizon mavjud. Hirot madaniy-ma'rifiy salohiyatini deyarli yo'qotgan". Lekin kuzatishlarimda deb yozadi elchi, "Hirotning eski binolari o'zining devorlarida ifoda etilgan sharqona naqshlari bilan kuzatuvchini bamaylixotir o'ziga tortadi [9]. Shaharda bir necha madrasa va masjidlar mavjud, afsuski, ular keyingi davr mahsulidir. Lekin madrasalar ko'rinishida rang-baranglik yo'q. Umuman

hirotliklar shaharda masjid va madrasalar kamligi tufayli ma'rifiy salohiyatini oshirish uchun boshqa joylarda o'qishga majbur bo'larkan. Hirot bozoridagi mollar asosan rus savdogarlarinikidir. Ayniqsa, rus samovariga xohish katta. Aholi ko'k choy va qandni ko'p iste'mol qiladi. Hirotliklar samovarda qaynatilgan qaynatma suvga qand va sut aralashtirib ichishga odatlanishgan". Qand mahsulotini Hirot bozoriga eroniy savdogarlar olib keladi. Aminboy Hoji eslashicha, "aholining ko'pchiligini afg'onlar tashkil qilgan holda, eronliklar va yahudiylar ham mavjud. Hirot bozorida kishilar fors tilida gapirishadi. Shahar aholisi yuz ming kishidan iborat. Oldi-sotdi ishlarida esa hindular sudxo'rlik qilishadi", – deya ta'kidlaydi. Buxorolik savdogarlar Hirotga kiyim-kechaklar, to'n, zarbof va qizil rangli matolar keltirishgan. Savdogarlar Hirot dan Buxoroga ko'k choy, bo'yoq, buzgun va indigo kukuni olib ketishgan. Hirot va Kobul orasidagi masofa 26 kunlik yo'ldir. Ushbu masofani bosib o'tar ekan, karvonimiz 50 ta kechuvni o'tdi".

Kobul tomon yurarkan, karvon kechasi ham kunduzi dam olmasdan, safarni davom qildirdi. Karvonboshi ixtiyori ila tuyalar yuki yengillatilib, otlarga ko'chirildi. Og'ir kechgan birinchi kechuvni o'tgan karvon, Hirotning sharq tomonidagi Ro'zibog' maskanida dam olishga qo'sh tashladi. Bu joylar Hirot hukmdoriga tegishli bog'-u rog'lar bo'lib, atrofi ekinzorlar bilan o'ralgan. Karvonning navbatdagi qo'nalg'asi Shoput chashmasi bo'ldi. Aynan bu yerda xivaliklar Buxoro xoni Abdullaxon qurdirgan sardobada tunashdi. Bu joylar deyarli Amudaryo qirg'oq bo'yidagi yerlar edi.

Navbatdagi kechuv Adraskan daryosi bo'yidagi qishloq bo'ldi. Karvon tog' oralig'ida tosh yo'llardan asta-sekin yuqoriga ko'tarila bordi. Tepalikda ko'chmanchi chorvadorlarning kigizdan yasalgan qora uy chodirlari yo'lovchi e'tiborini tortardi. Bu chodirlar ko'chmanchi siyovushlarniki edi. Ular har doim jangori va xavfli, shu sababdan ular maskanidan o'tish xatarlidir.

Siyovushlar ikki tilli etnik guruh bo'lib, ham afg'oncha, ham forsha gapirishadi. Karvonning bosib o'tgan to'rtinchi "kechuvi", Sabzavor qal'asi bo'ldi. Aholisi afg'onlardan iborat qal'a qo'rg'oni xom g'ishtdan bino qilingan. Qo'rg'on atrofini go'yo suv buloqlari o'rab olganday edi. Aholi 300 ta kulbada yashardi. Savdo-sotiq uchun qal'ada haftada ikki kun bozor o'tkaziladi.

Karvon Kobul tomon yurishida bosib o'tgan yettinchi va sakkizinchi kechuvlar odatdagi tog'liq joylardir. Suv buloqlari mavjudligi tufayli, siyovushlar xo'jaligida sug'orma dehqonchilik yetakchi tarmoq edi. Aholi paxsa loydan bino qilingan uylarda va yasama chodirlarda istiqomat qilishadi. Shunday qilib, karvon tabiiy geografik kechuvlarning o'n beshinchisidagina Qandahor shahriga kirib keldi. Bu shahar hajmi jihatdan Hirot dan ancha katta. Shahar qo'rg'oni kuchli

harbiy garnizonga ega. Jumladan, 100 to‘p, 10 000 piyoda sarboz va 4000 otliq jangchilardan iborat. Qandahor Afg‘onistonning yirik viloyatlaridan biridir. Uning hukmdori Sanjar Ali qizilboshlar vakilidir. Qandahorda 10 000 kishilik aholi mavjud. Shahar bozori ulkan, oldi-sotdi ishida, asosan, ingliz mollari bilan savdo qilinadi. Rus mollari deyarli yo‘q edi. Xiva karvoni Qandahor shahrida yetti kun turib qoldi. Shaharda yevropaliklar kiyimida yurganlar anchagina. Ayollarning barchasi yuz-betlarini bostirib, chachvon tortishgan”. Aminboy hoji Xiva karvonining Hirot shahridan to Kobulgacha o‘tgan xatarli, tashvishli yo‘lida 26 ta kechuvdan o‘tganini va har bir kechuvni o‘ziga xos qiziqarli ifodalaydi. “Afg‘oniston bo‘ylab karvon safarida na biron joyda jo‘xori, zig‘ir va kunjut o‘simligi ko‘zga tashlanmaganligini” qayd qilgan. Deyarli yo‘l uzra karvon to‘xtagan har bir shaharmi yoki qal‘ada kichkina aholi punktlarida ham masjidlar qoshida maktablarni ko‘rgandi.

“Kobulda 24 kun qolib ketdik”, deya eslaydi Xiva elchisi. Kobul Afg‘onistonning ulug‘ amiri Sheralixonning poytaxtidir. Kobul shahrini Xivaga nisbatan taqqoslarkan, “to‘rt barobar kattadir” deb ko‘rsatadi. Poytaxt aholisi to‘rt yuz ming kishidan iborat. Shahar tarixiga doir quyidagi ma‘lumotlar qiziqarli: “Kobul tog‘likda joylashgan, ba‘zi joylarida cho‘l, yaylov yerlar ko‘rinadi. Qo‘rg‘onda harbiy garnizon 500 to‘p bilan qurollangan. Bozor maydoni shahar o‘rtasida joylashgan. “Biz Sheralixonning kichik inisi Madaminxon saroyida joylashdik. Ertasi kuni bizni mamlakat hukmdori Sheralixon huzuriga kiritishdi. Sheralixonni biz yarim yevropacha kiyingan holda ko‘rdik. Hukmdor xonasiga kirar ekanmiz, u gilamda yostiqni buklab, unga suyangancha o‘tirgandi. U yoqimli va savlatli, quyuq soqolli bo‘lib, ko‘zlarida donolik ifodalanardi”.

Elchilik audensiyasida ikki nafar munshiy, Muhammadxon va sardorlar ishtirok qildi. Karvonimiz Kobulda turgan paytida hukmdor Sheralixon bilan uch-to‘rt marta uchrashgandik. Hukmdor xazinasidan karvonga kundalik xarajatlar uchun kuniga 18 (o‘n sakkiz) rupiy va 54 (ellik to‘rt) tanga miqdorida pul ajratishdi. Biz xon amaldorlari yetakchiligida Kobul bozorlarini ko‘rib, masjidlarni ziyorat qildik”. Elchiboshi suhbatini davom qildirar ekan, Kobul xotiralariga doir ushbu hodisani eslaydi. “Kunlarning birida Sheralixon bizni o‘zining “tabilaxona”siga taklif qildi. Bu joy hukmdorning otlari boqiladigan sayisxona edi. Unda arab otlari saqlanadi. Katta yaylov o‘rtasida mevali daraxtlar bilan o‘ralgan sersoya ayvonda hukmdor otlarni kuzatarkan, biz mehmon bo‘lgan kuni maydonchaga yuz nafar arab va axaltaka otlaridan haydab kelishdi. Otlar bilan harbiy mashqlar o‘tkazildi. Harbiy mashqlarni inglizlar xizmatidagi hindilar boshqargandi. Bu juda ajoyib, qiziqarli tomosha edi. Kobul shahri bozorida 1000 ta savdo do‘konchasi mavjud. Ko‘plab ustaxonalar va quyuv sexlarida hindi va ingliz hunarmand ustalari mohirlik bilan zarur anjomlarni quyardilar. Kobul

bozori misli ingliz va eron mollari bilan to‘lib-toshganday edi. Sotuvda ahyon-ahyonda hunarmand ustalar tayyorlagan rus samovarlari ko‘rinib qoladi. Bozordagi bosh kiyimlar ko‘proq Xorazmnikiga o‘xshash doirasimon, dumaloq cho‘girmaning xarid qilinishi ajablanarli edi”.

Elchi Afg‘oniston poytaxti haqida o‘zi ko‘rgan, bilgan ma‘lumotlarni bayon qilar ekan, “Kobulda Hindistondan Xiva karvoniga ijozat bo‘lgunicha ushlab turishdi”, – deb yozadi.

Kobul harbiy kuchlariga doir ma‘lumotlarni xorazmlik elchi “Sheralixon 40 ming piyoda, 10 ming otliq qo‘shin va 150 to‘pdan iborat harbiy garnizonga ega” deb ko‘rsatgan. Elchining kuzatishlarida inglizlar “qurol-yarog‘lari, harbiy ta‘minoti va moddiy yordami bilan Afg‘onistonning ichki va tashqi siyosatiga astoydil hukmronligi sezilardi. Eldoshimiz Kobuldaligidayoq inglizlar Sheralixonning shaxsiy hisobiga 100 000 rupiy pul, 2000 dona miltiq va 1000 rekrut harbiylarni yuborishgan. Kobul shahri haqidagi ma‘lumotlarni tugatar ekan, “Hindistondan biz uchun javob kelishi bilanoq, Kobul bilan xayrlashdik. Hindiston sari yo‘l olgan Xiva karvonining to‘rtinchi kunida ikki tabiiy kechuvni o‘tishga to‘g‘ri keldi. Aynan yo‘lovchilar Sheralixon bino qildirgan “Ko‘ru Zulmat” qo‘rg‘onida dam olish uchun tunashdi. Qal‘a hukmdori Sheralixonning kichik inisi Muhammadxon o‘z elida “Valiy” laqabiga erishgan shaxsdir. Aslida bu qal‘a mahalliy Chashmai Tur buloqlari zaminida qurilgandir. Qal‘ada 4 ming piyoda sarboz, 500 otliq navkar va 10 to‘pdan iborat harbiy garnizon mavjud. “Karvonimizni Hindiston chegarasigacha Valiy Muhammad qo‘riqchilari kuzatib bordi. Endi yo‘limiz ancha xatarli bo‘lib, qarshimizda siyovushlarning bir-biriga dushman ikki guruhi yashardi. Ular turmush tarzida, xo‘jalik hayotida mashg‘uloti chorva bo‘lib ko‘chmanchilik qilishgan. Shu xavf bois bizni yo‘l safarida 100 kishilik otliqlar sarbozi kuzatib keldi. Yana ikki kun yo‘l yurgach inglizlarga tegishli “To‘li farang” qal‘asiga yetib keldik. Bu qal‘ada bor-yo‘g‘i 60 uylik aholi bor edi. Inglizlarning bu qo‘rg‘ondagi harbiy garnizoni sarbozlari asosan hindi sipohiylardir. Aynan shu joyda karvonimizni qo‘riqlab kelgan afg‘on harbiylari bilan xayrlashdik. Endi navbatdagi to‘xtash joyi “Chaun frangi” kechuvi bo‘ldi. Bu qal‘a Hindiston chegarasidagi qo‘nalg‘a bo‘lib, unda ingliz harbiylari va bir necha afg‘onistonlik xizmat qilishardi. Qo‘rg‘on baland tog‘ etagida joylashgan edi. Karvonboshi fikricha, Ko‘hat qal‘asiga kirib keldik. Bu qo‘rg‘on haqiqatan ham kuchli harbiy qal‘a edi. 3 ming kishilik ingliz garnizoni, 1000 otliq askar va 20 dona to‘pdan iborat kuch bilan himoyalannardi. Ko‘hat qal‘asi xivaliklarda o‘ziga xos taassurot qoldirdi. Bu joyning o‘zgachaligi shunda ediki, hatto bozordagi do‘konchalar va savdo rastalari ham butunlay o‘zgacha bo‘lib, yevropa ko‘rinishini namoyon qilardi. Har bir do‘kon alohida qurilgan

bo‘lib, shishali eshiklar va oynalar qo‘yilgan. Savdo mollari do‘konlarda o‘ziga xos tartib bilan taxlangan. Ko‘chalar qatorasiga to‘g‘ri va tosh yotqizilgan. Ko‘hat qal‘asi oldin afg‘onlarga tegishli bo‘lsa, endilikda inglizlar qaramog‘iga o‘tgach, yangidan qayta qurilgan. Qal‘ada ingliz cherkovi ta‘siri sezilarli. Qisqasi mittigina Yevropani eslatardi”.

Buyuk Britaniya tomonidan lord Norsbruk javobini kutganicha Ko‘hat qal‘asida karvon bir hafta qolib ketdi. Karvonboshi nazarida, inglizlar haqiqatan ham hayratlanarli, ta‘sirli odamlar ekan. Menga ular yoqib qolishdi. Nazarimda inglizlar istarasi issiq, qandaydir yoqimli kishilar edi. Biz Ko‘hatda bo‘lgan davrda ular biz bilan birga o‘z qo‘shinlarini, telegraf, ustaxonalarni, hatto harbiy anjomlarni ham faxrlanib, g‘ururlanib ko‘rsatishdi.

Dehlidan javob kelishi bilanoq, otlanib tog‘ yo‘llari uzra Peshavorga yo‘l oldik”, – deb eslaydi Xiva elchisi.

Ko‘hat qal‘asidan yo‘lga chiqqan Xiva karvoni bir kunlik yo‘l bosib mo‘ljalga yetib keldi. Peshavor shahri deyarli o‘ttiz yil burun ingliz harbiy kuchlari tomonidan afg‘onlardan tortib olingan ulkan va qadimiy qal‘adir. Aholisi 30 000 kishidan iborat. Shahar atrofi ekinzor, dalalardan va keng bog‘-rog‘lardan iborat bo‘lib, tog‘ daryosi oqadi. Uzoqlarda oppoq qorga ko‘milgan tog‘ cho‘qqilari ko‘rinadi. “Peshavorni boshqa shaharlar bilan bog‘lovchi temir yo‘l qurilishi davom qilardi. Bizga qo‘rg‘on ichida alohida joy ajratildi. Peshavorda kecha-yu kunduz beto‘xtov yomg‘ir yog‘di. Hind sarhadlariga kirib olgan Xiva karvoni lord Norsbruk dargohiga yaqinlasharkan, inglizlar xiva karvoniga tarjimon va yetakchi yuborishdi.

“Angliya vitse-qirolu lord Norsbrukning Hindistonga qaytib kelganligi xabarini eshitib, biz Lahor shahriga pochta aloqachilari bilan yo‘lga chiqdik. Safarimiz davomida bizni oldin Jimem, so‘ngra Janab daryolaridan paromda o‘tkazishdi. Janab daryosidan kechishda temiryo‘l ko‘prigi qurilayotganini ko‘rdik”. Lahor shahriga doir Aminboy hoji ma‘lumotlarida “Peshavorga nisbatan bir yarim baravar katta. Eski qo‘rg‘onni inglizlar butunlay yangilashgan. Eski sharqona uslubdan farq qiladigan yangi yevropacha shaharsozlik ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ayniqsa, Lahor o‘zining bozori bilan mashhurki, katta savdo-sotiq ishlari amalga oshiriladi. Lahor aholisining yangi hukmron qatlami inglizlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ular tarkibida ko‘pchiligi harbiylar bo‘lsa, katta kichik davlat amaldorlari, ziyolilar va xizmat ko‘rsatish sohasining vakillari ham bor edi”. Shunday qilib, biz ertasi kuni temir yo‘l orqali Simla shahriga general-gubernatorning yozgi qarorgohiga yo‘l oldik. Yo‘l safarida bizga ingliz maktabi tolibi afg‘onistonlik Barakat Ali Xon hamrohlik qildi.

Aminboy hoji Simla shahrida Hindiston general-gubernatori, Angliya vitse qirolu bilan oliy darajadagi uchrashuvni eslarkan: “Nihoyat bizni Hindiston



hukmdori qabuliga keltirishdi. Lord Norsbrukka hukmdorimiz Sayid Muhammad Rahim Bahodirxon berib yuborgan nomani va sovgʻalarni topshirdim. Kobul audensiyasi favqulodda koʻrkam va iliq holatda oʻtdi. Norsbruk janobi oliylarining koʻplab savollari bizning maishiy hayotga, turmush tarzimizga bogʻlangandi. Men Xiva xoni topshirigʻiga koʻra ruslar haqida qoʻygan savollarimga general-gubernator maslahat tarzida ular bilan hargiz urushga bormaslikni, aks holda inglizlar yordamiga koʻz tikmaslikni vaj qildi. Lord Norsbruk yana Xivada tutqinlikdagi qul qilingan ruslarni, eroniy asirlarni ozod qilishni maslahat qildi. Lord Norsbruk xivaliklarni musulmonlar ligasini tuzishga daʼvat etdi. Diplomatik audensiya nihoyasida general-gubernator, avvalo, Xivaga javob xati berdi. Sovgʻa-salom hisobida inglizlarning yangi qurol-yarogʻlari, zarbof qimmatbaho sarpolar berib, Xiva elchilari bilan xayrlashdi. Shunday qilib, XIX asr ikkinchi yarmi dunyo siyosiy jarayonlarida yirik kapitalistik mamlakatlarning dunyoni boʻlib olishga qaratilgan siyosatidagi oʻzaro kelishuvlar oʻsha hududlardagi mahalliy aholining milliy manfaatlari hisobga olinmasligi oqibatida Xivaning Hindistonga ingliz hukumatiga oʻtkazgan elchiligi omadsiz boʻlib, 18 oy davomida Xiva elchilari noumid orqaga qaytishdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Икрамов Камил. Караваны уходят... Ташкент, 1976
2. Динашева Лазат Сарсенбековна доцент МКТУ имени Х.А.Ясави. UNIVERSUM:COM Общественные науки. Из истории соперничества России и Англии за Среднюю Азию (конец XIX – начала XX вв).
3. “Голос” 18 (30) января 1873 года.
4. Александр Кун. “Туркестанские ведомости” N 11. 1875. 11 марта.
5. OʻzR Davlat milliy arxivi. Fond 125 I, roʻuxat 2, hujjat 172, 3-varaq.
6. Арминий Вамбери. Очерки Средний Азии. М. 1868. 313 стр.
7. OʻzR Davlat milliy arxivi. Fond. 125 I, roʻuxat 2, hujjat 289, 2-varaq.
8. OʻzR Davlat milliy arxivi. Fond. 125 I, roʻuxat 2, hujjat 290, 2-varaq.
9. Апола Детков. Герат. “Туркестанские ведомости” N 11. 1885. 9 апреля.

**TARIX****YEVROPADA O‘QIGAN BIRINCHI IRRIGATOR****UO‘K 540.20**

**Umid  
BEKMUHAMMAD**

**Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Xiva xonligi davrida Fransiyada o‘qigan birinchi o‘zbek irrigatorining hayoti va faoliyati yoritib berilgan. Muhammad Aminaddinovning Xorazm tarixida tutgan o‘rni va hokim, mirob sifatida qilgan fidoyiliklari tahlil etilgan.

**Аннотация:** в статье описывается жизнь и деятельность первого узбекского ирригатора, обучавшегося во Франции во времена Хивинского ханства. Анализируется роль Мухаммада Аминаддинова в истории Хорезма и его жертвы на посту правителя и мираба.

**Annotation:** this article describes the life and work of the first Uzbek irrigator who studied in France during the Khiva Khanate. The role of Muhammad Aminaddinov in the history of Khorezm and his sacrifices as a governor and mirab are analyzed.

**Kalit so‘zlar:** Xiva xonligi, Xonqa, Xorazm, Fransiya, Tuluza, kollej, suv xo‘jaligi, mirob, irrigatsiya, qatag‘on davr.

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, Ханка, Хорезм, Франция, Тулуза, колледж, водное хозяйство, мираб, ирригация, репрессивный период.

**Key words:** Khanate of Khiva, Khanka, Khorezm, France, Toulouse, college, water management, mirab, irrigation, repressive period.

1897-yil. Xorazm. Muhammadni nafaqat qarindosh-urug‘lari, balki Xonqa ahli ham shod-xurramlik bilan kutib olishdi. Chunki u olis Fransiyada o‘qish bilan birga, islomning beshinchi sharti bo‘lgan haj ibodatini ham o‘tab (ta‘til payti Arabistonga borib) qaytayotgandi. Oradan qirq yil o‘tdi – 1937-yil. Endi Muhammad Aminaddinovni yaqinlari qayg‘u va yig‘i-sig‘i bilan...qamoqxonada ekanligidan xabar topishdi.

Xo‘sh, qirq yillik davr mobaynida Muhammad hoji qanday faoliyat ko‘rsatdiki, uni qamashga asos bo‘lsa? “Dastlab oilasida Aminaddin Yoqubdan, keyinchalik Xivadagi Arabxon madrasasida yaxshi ta‘lim olgan Muhammad Petro-Aleksandrovsk (To‘rtko‘l)da chor ma‘murlari tashkil etgan rus-tuzem maktabidayam o‘qiydi. Maktabni tugatgan payti – 1892-yil 5-avgustda Fransiya va Rossiya hukumatlari o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolaniib, uning bir

bandiga ko‘ra, ikkala davlat yoshlarining nufuzli o‘quv yurtlarida tahsil olishi ta’kidlab o‘tilgandi” [1].

Shunga ko‘ra, Feruzxonning Aminaddin qilgan iltimosi, qolaversa, Muhammadning tirishqoqligi sabab, Xonqa hokimining o‘g‘li Istambuldagi maxsus kursni tugatgach, 1893-1897-yillar Fransiyaning Tuluza irrigatsiya kollejida tahsil oladi. Tabiiyki, xonlik zamonidagi og‘ir vaziyatda aynan hokimning farzandi bo‘lgani, qolaversa rus tilini bilishi bois Muhammad olis Yevropaga o‘qishga yo‘l oladi. Tabiiyki, taqdir bitigi Xonqa hokimining o‘g‘liga Fransiyada o‘qish imkoniyatini berdi. Agarki, u gandimiyonlik dehqonning yoki boshqirshixlik, bog‘olonlik chorikorning farzandi bo‘lganida Xivadagi madrasada o‘qishgayam mablag‘ topolmagan bo‘lardi.

Xullas, Muhammad ushbu zamonaviy o‘quv yurtida g‘arb va sharqning suv tizimi, yerlar tarkibi, qurg‘oqchilik-u, suv toshqini, o‘simlik va hayvonot dunyosi tahlil qilib o‘tiladigan saboqlarni oldi.

Shu tariqa o‘zbek, fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan Muhammad farang tilida kollejda tahsil ola boshlaydi. Ta’tilda vaqt topib esa Makka va Madina shaharlariga borib, haj ibodatini bajaradi. 1897-yilda O‘rta Osiyodan birinchi bo‘lib irrigator degan Yevropa diplomini olib, Vataniga qaytgach, uni Amudaryoda tashkil qilingan flotiliyaning o‘quv kursiga boshliq etib tayinlashadi. Bu kezlari uning ixtiyorida 220 ta katta-kichik kema bor edi. Ushbu kemalar daryo bo‘ylab transport vazifasini o‘tagan va ularda odamlar, ularning yuklari tashilgan. Flotiliya kursiga M.Aminaddinov rahbar bo‘lgach, tez orada kemalar soni 315 taga yetadi.

1900-yilda otasi – Xonqa hokimi Aminaddin vafot etgach, Xiva xoni Feruz uni ushbu hududga hokim qilib tayinlaydi.

Muhammad Xonqaga hokimlik qilgan yigirma yil ichida qishloq xo‘jaligi yetishtiradigan beklikda paxta tozalash, yog‘ va un zavodlari ishga tushiriladi. 25 ming kishi yashaydigan Xonqada ariq zovurlar tozalanishi yaxshi yo‘lga qo‘yilgach, dehqonchilik taraqqiy qilgan o‘lkaga aylanadi. 1905-yili xonlikka kelgan rus olimi A.Samoylovich hamda Amudaryo bo‘limining boshlig‘i N.S.Likoshin o‘z xotiralarida Muhammad hokimni Rossiya va xorij gazetalarini o‘qib turadigan ziyoli, o‘z uyini yevropacha jihozlagan taraqqiyparvar kishi deb ta’riflagandilar.

Ha, u o‘z yurtdoshlarini ham taraqqiyotga intilishini istar, shu bois o‘lkada tashkil qilingan jadid maktablarini mablag‘ bilan ta’minlab turardi. Shuningdek, o‘zi obuna bo‘lgan “Tarjimon”, “Vaqt”, “Peterburgskie vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazetasi” nashrlarini ham ixlosmandlarga o‘qish uchun berib turar, maqolalar mazmunini tushuntirib, ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib qilardi. Aytish mumkinki, Muhammad Xiva xonligining yigirmata hokimi ichida eng taraqqiyparvari, eng yoshi va hajga borgan yagona inson bo‘lib, uning orzulari

ushalishiga mustabid chor hukumati va zolimona boshqaruv shaklidagi xonlik tuzumi to'g'onoq edi.

1916-yilda xonlikda Isfandiyorxon va chor istibdodiga qarshi qo'zg'olon bo'lib, qo'zg'olon bostirilgach, Turkiston general-gubernatorligi tomonidan isyon paytida Rossiya va Xiva fuqarolari ko'rgan zararlarni aniqlash bo'yicha komissiya tuzilib, unga Muhammad Aminaddinov ham a'zo bo'ladi. Garchi, komissiyada mustamlakachilar manfaati aks etsa-da, Aminaddinov mahalliy xalqning tarafini olishga intildi. Bu borada qo'zg'olonni bostirish paytida fuqarolarning mol-u mulklarini musodara qilish kuzatilib, Galkinning jazo qo'shini shtabga 20-mayda 123 600 rubl, 21-mayda 223 469 rubl, 22-mayda 434 904 rubl, 23-mayda 257 938 rubl pul to'plaganini aniqlaydi. Turkmanlardan esa 18 ming dona tilla tanga va 25 funt tilla yombisi musodara qilingani, yana qanchadan qancha gilamlar aholi qo'lidan tortib olingani aniqlanadi. Tabiiyki, bular o'zi shundog'am nochor ahvolda yashayotgan xalq uchun jabr edi. Aminaddinov xalq ichida yurib ana shularni ko'radi.

Ayni paytda esa u Isfandiyorxon atrofini mustamlakachilar ishonchini qozongan va ularga xizmat qilib boyishni maqsad qilgan Baqqolovlar egallaganini ham ochiq gapiradi. U Turkiston general-gubernatorligiga 1916-yil oktabrida: "Matvafo Baqqolov goho turkmanlarni himoya qilsa, goho ularga qarshi ish qiladi. Masalan, 1915-yili, u hali bosh vazirlik lavozimida ekanligida, Rossiya urush bilan band, uning qo'li endilikda Xivaga yetmaydi, shunday paytda turkmanlar xon hukumatiga qarshi har nima qilsa bo'laverishi mumkinligidan ularni ogohlantiradi" [2] deya axborot beradi. Ya'ni, isyon aynan Matvafoning turkmanlarni gijgijlashidan kelib chiqqanligi, keyin esa butun xonlikka tarqalib, xalq jabr ko'rganligini aytadi.

Oradan bir oz vaqt o'tib, 1917-yil fevral va oktabr oylarida Rossiyada davlat to'ntarishlari bo'ldi. Biroq Xiva xonligi to 1920-yilgacha saqlanib qolaverdi. O'sha yil 2-fevralda bolsheviklar madadiga tayanib, "Yosh xivaliklar" xonlikni tugatishdi va Xorazm Xalq Respublikasiga asos solishdi. Polvonniyoz hoji Yusupov va Bobooxun Salimov singari XXR rahbarlari, Muhammad Aminaddinovdek ziyoli va elboshining tajribasidan foydalanib, uni irrigatsiya va dehqonchilik noziri qilib saylashdi. Keyin esa XXRning irrigatsiya boshqarmasiga boshliq qilib tayinlashdi. Sun'iy sug'orishga asoslangan vohada qazuv va daryo dambalarini ko'tarish, ichki ariq, zovurlarni tozalash ishlari aynan Muhammad tashbusi bilan boshlandi. Birgina 1922-yilda Hazoraspan Xo'jayligacha bo'lgan 220 kilometrlik masofada qaytadan to'g'onlar qurildi, qazuv va tozalash ishlari olib borildi.

"Новый Восток" jurnalining 1923-yil 3-sonidagi maqolada yozilishiga ko'ra, "Xorazm Xalq Respublikasining Hojiboy Aminaddinov yetakchilik qilayotgan dehqonchilik nozirligida quyidagi bo'limlar bor: umumiy bo'lim, xo'jalik bo'limi, yer tuzilishi, suv xo'jaligi, to'qay va ko'llar, vaqf yerlar va oziq-ovqatlar tayyorlash bo'limi". M.Aminaddinov ana shu bo'limlardan tashkil

topgan nozirlikka rahbarlik qilib, jurnalning o'sha sonida yozilishicha, Xorazmning 93,6 foizlik dehqonchilik qiladigan aholisiga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilgan. O'zlashtirilmagan joylardan yangidan 40 ming tanob (7,6 ming gektar) yer qishloq xo'jaligida foydalanishga kiritilgan. Natijada xorazmlik dehqonlar olgan hosildan Nijniy Novgoroddagi yarmarkaga mahsulotlar olib borishadi. M.Aminaddinov va Xudoybergan Devonov boshchilik qilgan XXR vakillari 1923-yildagi ushbu ko'rgazmada 130 million so'mlik dehqonchilik mahsulotlari sotishadi. 1924-yilda O'rta Osiyoda milliy chegaralanish o'tkazilib, XXR tugatilgach, Xorazm okrugida suv masalalari bilan shug'ullanuvchi UPRADIS tashkiloti tuziladi va M.Aminaddinov unga bosh injener qilib tayinlanadi. Shu tariqa qadimdan kelayotgan qazuv an'anasini mahalliy hokimiyat qonuniy izga ko'chiradi va barcha suv havzalarini umumhashar yo'li bilan qazishni tartibga soladi. Bu ishlar bilan, shuningdek, Amu suvini voha bo'ylab taqsimlashga aynan UPRADIS shug'ullanardi.

1913 va 1924-yillarda Xorazmga ilmiy safar qilgan gidrolog Vladimir Sinzerling (1884-1954), Quyi Amudaryo havzasida mavjud sharoit bilan yaqindan tanishish asnosida Muhammad Aminaddinov bilan suhbat qurgan. Rossiyalik olim Sinzerling, Aminaddinov va boshqa miroblar bilan ham maslahatlashib, Xorazmda paxtachilik istiqbollari o'rganib chiqadi. Keyinchalik u tahlil qilgan ma'lumotlarini "Хлопковое дело" jurnalida (Moskva, 1924-yil) "Amudaryo deltasida sug'orish va paxtachilik istiqbollari" nomli maqolasida aks ettiradi. Shu bilan birga, V.V.Sinzerling Amudaryo havzasida o'rgangan ma'lumotlarini to'ldirib, "Amudaryoda sug'orish" nomli monografiyasini (M, 1927, 808-varaq) nashr qildirdi. Unda Xorazm vohasidagi yerlar sathi yiliga o'rtacha 1 mm, shu bilan bir qatorda daryodan chiqqan qum-sovg'a loy aralastirib to'kiladigan mineral va mahalliy o'g'itlar sababli 7 mm ko'tarilishi qayd qilingan. V.V.Sinzerlingning kitobi suv xo'jaligi muammolari bilan shug'ullanayotgan olimlar qatoridan mustahkam o'rin egallashiga zamin yaratdi. Garchi kitob nashrdan chiqqan 1927-yilda Xorazmda rus tilini biluvchi mahalliy miroblar kam bo'lsa-da, Muhammad Aminaddinov Sinzerling kitobi bilan batafsil tanishib chiqdi. O'z shogirdlari va hamkasblariga Sinzerling kitobining ahamiyati, shu bilan birga ba'zi kamchiliklari to'g'risidayam tushuntirish berib bordi.

Muhammad Aminaddinov 1927-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti professori Fyodor Petrovich Morgunenko (1880 – 1939) hamda injener V.V.Poslavskiylar bilan ham uchrashadi. Yuqoridagi olim va mutaxassislar Janubiy Xorazmning sug'orish tizimini qayta qurish imkoniyatini o'rganayotgan edilar. Aminaddinov o'z tajribasidan kelib chiqib, ularga bir qator foydali takliflar, maslahatlar berdi.

1936-1937-yillarda Xorazmga kelib suv xo'jaligi tarixini o'rganishni boshlagan bo'lg'usi akademik Yahyo G'ulomov xonqaliklardan Muhammad Aminaddinovning faoliyatini eshitib, u bilan uchrashishga harakat qiladi.

Afsuski... Biroq bu paytga kelib yetuk olim va mutaxassislar fikri e'tiborga olinmas, suv xo'jaligi va boshqa ishlar markazdan kelgan byurokratlar rahbarligiga o'tib ketgandi. Jamiyatda avj olgan kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosati sabab xalq orasidan ichki dushmanlarni izlash siyosati yuritilgach, M.Aminaddinov ishdan bo'shatiladi. Endi u Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanidagi "Degishstroy" tashkilotida, Qoraxonboy kolxozi va Shabboz tumanidagi "Istamas" kolxozlarida oddiy miroblik qiladi. Shu tariqa xorijda ta'lim olgan birinchi o'zbek irrigatori, boshqaruv sohasidayam tajribali bo'lgan Muhammad hoji sinfiy dushman sifatida chetga surib qo'yiladi.

Natijada aynan suv xo'jaligi tizimida katta kamchilik va nuqsonlar ro'y beradi. Davlatning millionlab mablag'lari o'zlashtirib yuboriladi. 1928-yilning bahorida, Toshkentda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo suv xodimlarining sud jarayoni katta shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Ushbu sudda shu davrdagi O'rta Osiyo suv inshootlarining qurilishidagi katta kamchilik, nuqsonlar, salbiy jihatlar fosh qilingan edi. Sudda davlat ayblovchisi, prokuror Kondurushkin O'rta Osiyo "mirob"larining ishida "bosqinchilik, zararkundachilik va sabotaj"ning barcha qonuniy belgilari bor ekanligini isbotlagan edi. Buning ustiga, Moskvadagi Davlat reja qo'mitasi suv seksiyasi rahbarlari Novassi, Kenig, Seydler va Rizenkampflarning O'rta Osiyo Suv boshqarmasi boshliqlari kommunistlar Rikunov, Proxorov va Mor bilan birga to'la rejalashtirilgan va texnikaviy hamkorlikda rivojlangan faoliyatlari haqida gapirar ekan, Kondurushkin shunday dahshatli so'zlarni tilga oladi: "Sudda biz tashkiliy qarshilikka, ustomonlar to'dasining fitnasiga duch kelib turibmiz".

"Ushbu suddagi tergov materiallari salkam 50 tomni tashkil etgan, ayblov fikri esa mayda bosmada yozilgan 162 sahifada bayon qilingan edi. Ish Toshkentda bo'lib o'tgan Moskvadagi Oliy sudning sayyor yig'ilishida besh hafta mobaynida ko'rib chiqildi. Suddagi qora kursida yuqorida nomi tilga olingan – Rikunov, Proxorov va Mordan tashqari, ularning o'rinbosarlari – Riskin, Shugayevskiy va Sharov, shuningdek, O'rta Osiyo suv xo'jaligi boshqarmasining mas'ul lavozimlarini egallagan 17 nafar sudlanuvchi (jami 23 kishi) o'tirib, javob berishdi.

Sudda ayblangan kishilarning ismlaridan ko'rinib turibdiki, o'lkadagi yer, suv sharoitini bilmay, bu tizimga rahbarlik qilgan mustamlakachilar endigina qad ko'tarayotgan sho'ro davlatining millionlab mablag'larini o'zlashtirib yuborishgandi.

Muhammad Aminaddinov sud materiallari bosilgan "Правда востока" gazetasi o'qib, faqat afsus va nadomat chekardi, xolos. Chunki, o'zi va unga o'xshash mahalliy miroblar, yetuk olimlar fikriga e'tibor berilmay qilingan loyihalar natijasida Janubiy Xorazm suv tizimida ham ko'plab xato, nuqsonlarga

yo‘l qo‘yilgandi. Sud materiallarga ko‘ra, “ko‘zda tutilgan smetadagi pul faqat 6 million rubl edi. 1924-yilda ishga kirishildi. 2 519 900 rubl sarf qilingandan keyingina, asosiy inshootlar noqulay o‘rinda qurilganligini, ularni 25 kilometr nariga surish kerakligini “payqab qolishdi”. Bu ishlarni to‘xtatib, yangi loyiha bo‘yicha ishga kirishdilar. Yangi loyiha esa 1927-yilning sentabrida ham, ya‘ni quruvchilar tergovda javob bera boshlagan paytda ham tayyor bo‘lmagan edi. Yangi loyiha 61 million so‘mlik smetaga asoslangan edi. Janubiy Xorazm fojiasi shu bilan ham yakunlanib qolmadi. Quruvchilar ustidan sud bo‘layotgan kunlarda Sormovodan “zemlesos”lar kelishi kutilayotgan edi. Sormovoga 1 200 000 so‘mlik, 2 zemlesos” buyurtma berilgan bo‘lib, “O‘rta Osiyo suv xo‘jaligi” o‘z



ishlarini rivojlantirish uchun daryo flotilyasini ochishni mo‘ljallagan edi” [3].

Janubiy Xorazmda esa birorta zovur ham qazilgani yo‘q, – deb ta‘kidlanadi sud hisobotida. Sud hukmiga ko‘ra, Rikunov va Mor huquqlardan mahrum qilinmagan holda 6 yil qamoq jazosiga hukm qilindi. Proxorov 3 yilga. Eng qattiq jazo esa ikkinchi darajali shaxs bo‘lgan muhandis Siromyatnikovga tegishli: u huquqlardan mahrum qilingan holda 6 yil qamoq jazosiga hukm qilindi. Sud Moskvadagi Davlat reja qo‘mitasi Suv seksiyasidan Rizenkampf va boshqalarni sud javobgarligiga jalb qilish

haqida qaror chiqardi (ammo ularning birontasi ham javobgarlikka tortilmadi), 23 nafar ayblanuvchining 3 nafari esa oqlandi.

“Правда востока” gazetasidagi maqolani o‘qib, 54 yoshli tajribali mirob, suv tizimida katta xatolar yo‘l qo‘yilayotganini, talon-toroj etilgan mablag‘ o‘rni qoplangan tarzdayam, sohaga mahalliy sharoitni bilmaydigan, bilim va ko‘nikmasi yo‘q xodimlar kelayotganini anglab, afsuslar qildi. O‘zi kabi miroblarning esa chekka bir kolxoz gidrotexnigi bo‘lib qolganidan, xalqqa nafi tegmayotganidan, o‘qigan, to‘plagan tajribasi bekor ketayotganidan o‘kindi...

1934-yil. Shu sanada jo‘shqin Amudaryo toshib, Hazoraspdan Gurlangacha bo‘lgan hudud suv toshqinidan katta zarar ko‘radi. Hattoki, Gurlandagi Cho‘bolonchi qishlog‘i aholisini, qabristonlarni suv bosish tahlikasi paydo bo‘ladi.

Ana shunday tahlika paytida yuqoridagi singari sharoitni bilmaydigan suv tizimi rahbarlari hech bir ilojisiz toshqinga qarshi kurash olib borisholmaydi. Shundagina vaziyat murakkablashib borgach, Xorazm rahbarlari bunga chora ko‘radigan inson sifatida ovloqdagi kolxoz gidrotexnigi Muhammad hojini eslab qolishadi. Shu tarzda hoji To‘rtko‘ldan kelib, suv ofatini o‘z tajribasiga asoslanib daf eta oladi. Toshqin balosidan qutulgach esa To‘rtko‘ldagi kolxoz mirobchiligi ham unga ko‘p ko‘riladi – 1935-yilda ishdan olib tashlanadi.

1937-yilning 19-oktabri, yarim tun. To‘rtko‘lda yashovchi Muhammad Aminaddinovdek el oqsoqoli bo‘lgan, yurt fidoyisi “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinadi. “1937-yil 3-noyabrda Aminaddinov Hojiboy Hokim (Muhammad Aminaddinov) aholi orasida aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblandi. Tergov ishida qayd etilishi bo‘yicha, 1873-yilda tug‘ilgan mahbus Xonqa hokimi bo‘lgan, quloqqa tortilgan, hibsga olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. U 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilib, jazo muddati 1937-yil 18-oktabrdan hisoblangan. Biroq unga tergovchilar tomonidan qamoqxonada turli azoblar berilishi natijasida 64 yoshdan o‘tgan nuroniy, qatag‘on zulmiga chidayolmay, qamoqda vafot etadi” [4]. Fransiyada tahsil olgan mirobning taqdiri, afsuski, sho‘ro davrida shunday ayanchli kechdi...

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. U.Bekmuhammad “Xorazm va xorazmliklar. Birinchi kitob”. “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2022 yil, 140-bet.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi, 461-fond, 1-ro‘yxat, 1899-ish, 255-260-varaqlar.
3. U.Bekmuhammad “Xorazm va xorazmliklar. Birinchi kitob”. “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2022 yil, 142-bet.
4. R.Shamsutdinov, U.Bekmuhammad. “Qatag‘on qurbonlari. Xotira. Xorazm viloyati. “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent – 2009 yil, 123-bet.



**TARIX****NIZOMIDDIN OXUND SALIMOV HAYOTI VA FAOLIYATI.**

**Matyusuf  
SALIMOV**

**Yangibozor tumani  
1-son kasb-hunar  
maktabi o'qituvchisi**

**UO'K 570.511**

***Annotatsiya:** 1891-yilda qozikalon oilasida tug'ilib, Xiva madrasalarda ta'lim olgan, madrasa va jaded maktablarida ta'lim bergan, qatag'on davrida tazyiqqa uchrab, umrining oxirigacha yashirin hayot kechirgan qozikalon Muhammad Salim oxund farzandi Nizomiddin oxund Salimov hayoti haqida so'z yuritamiz.*

***Аннотация:** слово о жизни Низамиддина Ахунда Салимова, сына Казикалона Мухаммада Салима Ахунда, который родился в 1891 году в семье Казикалон, получил образование в медресе Хивы, преподавал в медресе и современных школах, преследовался во время репрессий и жил тайно.*

***Annotation:** a word about the life of Nizamiddin Akhund Salimov, the son of Qazikalon Muhammad Salim Akhund, who was born in 1891 in a Qazikalon family, was educated in Khiva madrasahs, taught in madrasas and modern schools, was persecuted during the repression and lived a secret life until the end of his life.*

***Kalit so'zlar:** Gurlan, oxund, mudarris, qozikalon, xattot, madrasa, dorulmudarris, "Tarjimon", eshon, Do'rman, Qipchoq.*

***Ключевые слова:** судья, казыкалон, главный судья, домла, эшан, ахунд, ходжа, махдум, медресе, беклик, мударрис, инспектор юстиции, хазрат Каракумов, каллиграф, печатник.*

***Key words:** judge, qazikalon, chief judge, domla, eshan, akhund, khoja, makhdum, madrasa, bekluk, mudarris, inspector of justice, hazrat of Karakum, calligrapher, printer.*

Nizomiddin oxund hijriy 1308-yilning zulqa'da oyining 21-kuni, milodiy 1891-yil 28-iyun kuni qozikalon domla Muhammad Salim oxund oilasida tug'ilgan. Oilada beshinchi farzand bo'lgan va Yosh xivaliklar harakatining faol a'zosi, Xorazm Respublikasining birinchi Adliya noziri Boboovun Salimovning inisi edi. U yoshligidan ilm olishga ishtiyoqi kuchli bo'lganligi, qiziqqanligi sababli 10 yoshida madrasaning avvalgi bosqichini yakunlab, o'qishni davom ettirib, tez orada madrasani tugatadi va Qadam yasovulboshi madrasasida,

qozikalon madrasasida mudarris, oxund bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. Shu vaqtlarda Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II – Feruz, Asfandiyor to‘ra, Islomxo‘ja va Mamat mahramlar tashabbuslari asosida jadid maktablari tashkil etilgan.

Qodirbergan hoji otasi Nizomiddin oxund haqida quyidagicha eslaydi: “Muhammad Rahimxon Feruzning xonlik vaqtida tatar musulmon olimlari bilan shartnoma asosida Xivaga chaqirtirib olib kelib, Xorazm talabalari, yoshlariga dunyoviy ilmlarni o‘qitish maqsadida ikkita yo‘nalish bo‘yicha qisqa muddatli maxsus kurslar tashkil qilgan. Ikkita kursga 60 nafar talaba qabul qilgan va shu talabalardan 15-16 nafari bu kurslarni yaxshi o‘zlashtirib tugatgan, otam ham shu ikkita kurslarni o‘qib tugatgan”.

Bu haqida yana Ismoil G‘aspirali bosh muharrirligidagi “Tarjimon” gazetasining 1887-yil 15-avgustdagi sonida: “Xivada xon tarafidan maktab ochilib, unda o‘quvchilar rus tilini o‘rganadilar, maktab xon sarmoyasi bilan ta‘minlangan, maktab uchun 34 xonali bino qurdirgan, ikki yil oldin Xiva xoni dunyoviy ilmlar ham o‘qitiladigan yangi madrasa ochmoqchi edi, bu ishlarning boshi bo‘lsa kerak”, – deb maqola yozilgan edi. Yana “Tarjimon” gazetasining 1907-yil 30-mart sonida: “Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikkita muallimni chaqirtirdi, 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars berishni boshlab yubordilar”, – deb chop qilganlar. Shuningdek, 1905-yilda xon amaldori Mamat mahram tomonidan Deshon qal‘adagi uyida jadid maktabi faoliyat boshlagani haqida xabar bergan. 1907-yil 28-mayda Asfandiyor to‘ra, Islomxo‘ja, 31-may kuni Qozikalon, mudarris va oxundlar tomonidan ikkita maktabning 113 nafar talabasi imtihon topshirib, a‘lo baho olishgan. Imtihondan so‘ng Asfandiyor to‘ra, Islomxo‘ja va qozikalon Muhammad Salim oxundlar o‘zaro maslahatlashib, Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikkita o‘qituvchi taklif qilishga qaror qilishadi. Xorazmda jadid maktablarini ko‘paytirish, o‘quv jihozlari, adabiyotlar bilan ta‘minlash, ulardagi ta‘lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzoda maktablar noziri qilib tayinlanadi.

Ismoil G‘aspirali “Tarjimon” gazetasida Xorazm jadid maktablari faoliyati haqida ko‘plab maqolalar chop qilib turgan. 1909-yilgi 40-sonida, “Maktablarning ochilishi ko‘payishi lozim. Boqchasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga endi to‘g‘ri kelmaydi, yarashmaydi. Endi Xivaning o‘zidan muallimlar yetishtirmoq kerak va Xivada chop etiladigan alifbolarni yaratmoq kerak. Bunda hech bir kimsa zarar ko‘rmaydi”, – deb o‘zining qimmatli fikrlarini bildiradi.

1920-yil Xorazm Respublikasi tuzilgandan keyin, Nizomiddin oxund Xiva shahrida ta‘lim sohasida ish faoliyatini davom ettiradi. Bu haqida tarixiy hujjat – “Shahodatnoma”ni ko‘rib chiqsak:

“Ushbu shahodatnoma beriladi birodar Nizomiddin maxzum qozi Salim o‘g‘liga shul xususidakim, o‘quv idorasi tarafidin tozadin ochulajaq Abulg‘oziy muarrix madrasasiga talabalarni qobul etib olurg‘a komissiya tayin etildi. Endi

kerakkim, mazkur birodar komissiyalar bilan birgalikda zimmasig‘a lozim bo‘lg‘on vazifasin ado etub turmog‘i kerak” – deb, O‘zbek viloyat o‘quv boshlig‘i, tashkilot mudiri va sarkotiblar imzo qo‘yganlar. O‘ng yuqorg‘i joyiga to‘rtburchak (shtamp) muhr bosilgan. Xorazm viloyati bosh o‘quv bo‘limi, 1924-yil 22-dekabr, Xiva shahri, 929-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Yana bir hujjat, Nizommiddin oxundni fan muallimi qilib tayinlov buyrug‘idan ko‘chirma qilib bergan:

“1925-yil 10-fevralda Xiva viloyat maorif sho‘basini chiqarg‘on 22-nomerali buyruqini 1-moddasidin kufiya.

Dorulmudarrisin o‘qituvchisi Nizomiddin Muhammad Salim o‘g‘li arizasiga binoan mazkur birodarni 1-fevraldan e‘tiboran madrasa mazkurga fan muallimlar qatoridin tayin etulsun va ham 12-sinf oyliq ila tayin etulsun, har oyiga 30 soat soatliq, har soatiga 1 so‘m 50 tiyindin berilur hamda kechki muzokara vaqtida 2 soat, har vaqt tayyor bo‘lsin.

Aslig‘a Xiva viloyati maorif sho‘ba mudiri birodar Muxtor Bakirov qo‘l qo‘ygandur, aslidin to‘g‘ri Qalandar Hojiyev” – deb keltirilgan. Orqa tarafiga: “Dorulmudarrisin mudiriga ma‘lumot uchun sarkotib” – deb qo‘l qo‘yilgan.

Shu bilan birga 1925-yilda qayta tayyorlov kursida ham o‘qiganligi haqida bu shahodatnomadan bilib olishimiz mumkin: “O‘rtoq Nizomiddin Salim o‘g‘liga 1925-yildagi 3,5 oyliq qishloq ovul muallimlarining qaytadan tayyorlash kursining darslarini tingladi. Shuning to‘g‘riliqi tasdiq qilunib, shahodatnoma qo‘lina berildi. Shuni muhr imzolar bilan rasmiylashdirildi” – deb kurs mudiri, o‘quv komissiyasi mudiri, sarkotiblar imzo qo‘yib, muhr bosilgan. O‘ng yuqori burchagiga to‘rtburchak (shtamp) muhr bosilgan va O‘.S.J. Xorazm viloyati maorif sho‘basi qaramog‘idagi ta‘lim va takror kursi. 1925-yil sentabr, 44-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Yana bir hujjatda, ya‘ni “Choquruv qog‘ozi”da Nizomiddin oxundni 1926-yil 13-may kuni payshanba kuni kech soat 6 da Xorazm viloyati ta‘lim-tarbiya texnikumida birinchi marotaba Xorazm o‘qituvchilarni chiqarish marosimiga (majlisiga) texnikum idorasi tomonidan taklif qilingan. Bu taklifnoma “Inqilob quyoshi” bosmaxonasida 200 nusxada chop qilingan.

1927-yil 20-yanvar kuni viloyat maorifining buyrug‘i bilan Nizomiddin oxund Gurlan rayoni 1-bosqich ish maktabiga muallim qilib yuborilgan. Gurlan rayoni maktabida 1-2 yilcha faoliyat olib borgan, chunki katta akasi Boboovun Salimov ham ta‘qibdan qochib, tog‘alari qishlog‘ida istiqomat qilar edi va 1929-yil may oyida vafotidan keyin qozikalonning qolgan farzandlariga boshqa ziyolilar qatorida ta‘qib kuchaya boshlagan edi. 1929-yil 31-yanvar kuni “Yerdan mehnatsiz foydalanishni tugatadigan Gurlan rayoni yer komissiyasi” tomonidan qozikalon avlodlariga tegishli 88 tanob yer, uy, g‘allalar, chorvalar va boshqa xo‘jalik ashyolarni davlat foydasiga musodara qilgan. Undan keyin Nizomiddin oxund qarindoshi Otaniyoz maxsumning ikki xonali eski

omborxonasiga ko‘chib o‘tgan. 1930-yil akasi Boboovun Salimovning yil oshini berish uchun Jumurtog‘dagi tog‘alari yashaydigan Eshonqal’a qishlog‘iga borganida, qizil askarlar qishloqdagi er kishilarni ushlab, qamoqqa olib ketishadi. Nizomiddin oxund qiyinchilik bilan ularga asir tushmay qochib, Qipchoqdagi Toma qishlog‘ida yashaydigan Tangribergan oxund, Xivada madrasalarda birga o‘qigan do‘stining uyidan panoh topadi. Shundan keyin umrining oxirigacha faqat yashirinib hayot kechiradi. 1938-yildan 1951-yillargacha NKVD xodimlari tomonidan 3-4 marotaba Urganch shahriga olib ketilib, so‘roq qilinib, turmada saqlagan. Asosiy ayblov qozikalon o‘g‘li bo‘lganligi, Xorazm vohasida xalqlar orasida yuqori obro‘ga ega bo‘lishi, ayniqsa ziyoli qatlam orasida katta hurmatga sazovor bo‘lganligi sababli NKVD xodimlarining “qora” ro‘yxatida edi. Ikkinchi jahon urushi vaqtida xalqni o‘z ortidan ergashtirishga, liderlik, rahnamolik qobiliyati borligini, og‘a-inilari qizillar tomonidan qatag‘on qilinganligi sababli, davlatga qarshi siyosatda bo‘lgan deb gumon qilinib, har xil ayblar bilan ayblashga urinar edi. O‘zining aql-zakovati bilan, do‘stlarining ko‘magi bilan so‘roqlardan qutulib ketar edi. Oxirgi so‘roqdan keyin Xorazm vohasida yashamasligi va Xorazmdan chiqib ketish sharti bilan qo‘yib yuboradilar. Farzandlarining aytishicha, haftada, oyda bir marotaba kechalari uyga kelib, oilasidan xabar olib turgan. O‘sha vaqtlardagi Rahmatulloh oxund eshon, Muhammad Karim eshon, mullo Karim maxzum Muhammad Safo eshon, Bobojon eshon (Jumurtog‘li) va boshqa do‘stlari yordamida yashirin hayot kechirgan. Akasi Imomiddin oxund vafotidan keyin, ukasi Inoyatulloh oxund qamalgandan keyin, opasi Saodatjon aya (turmush qurmagan) bilan oilada bosh bo‘lib, aka-ukalari farzandlarini ham o‘z qaramog‘iga olgan. 1951-yil turmush o‘rtog‘i Saodatjon ayaning vafotidan keyin, farzandlarini olib Jumurtog‘dagi Eshonqal’a qishlog‘iga (Amudaryo tumani, oldin Qipchoq tumanida bo‘lgan) ketishga majbur bo‘ladi. Yashirin hayot kechirishiga qaramasdan yana bir necha marotaba NKVD xodimlari tomonidan qo‘lga olinadi va o‘sha vaqtdagi Yaxshimurod aka (Do‘rmanli), mullo Karim bobo, Rajab aka va boshqa do‘stlari yordamida ozod qilinadi. 1959-yil O‘razmat Quchqarov, Soliy Karimov do‘stlari yordamida yana Gurlan tumaniga ota hovlisiga yaqin hududga imorat qurib, Qodirbergan, Zaynab, Xaticha farzandlari bilan umrining oxirigacha Gurlan tumanida umr kechirdi. 1960-yillarda hayot tarzi bir oz yaxshi tomonga o‘zgargan bo‘lsa-da, maxsus xodimlar uyiga kelib, tergov sifatida suhbatlashib turishgan. O‘g‘li Qodirbergan hoji otaning aytishicha, 1965-yillar maxsus xodimlardan biri uyga kelib, otasi Nizomiddin oxundni Urganch pedagogika institutiga o‘qituvchi bo‘lib, talabalarga arab, fors tillaridan dars berishga olib ketishmoqchi bo‘lganligi, otasi rozi bo‘lmagani va shundan keyin otam 3-4 oy uydan ketib qolganligini eslaydi. Yana 1967-yillar Beruniny tumanidagi zamonasining mashhur ulamosi Naqshbandiya tariqatining davomchisi Muhammad Karim eshon huzuriga borib, qo‘l berib murid bo‘ladi va qisqa vaqt ichida undan eshonlik rutbasini oladi. Nizomiddin oxund murid, ya’ni shogird olishini rad qilsa ham,

Safarboy eshon, Yusuf eshon, Rahmatjon so‘fi, Shukurulloh bobo va boshqa o‘ndan ortiq shogirdlariga dindand, shariatdan, tariqatdan ta‘lim beradi.

Nizomiddin oxund hayotining keyingi davri qiyinchilikda, ta‘qib ostida o‘tsa-da, farzandlariga, jiyanlariga ta‘lim-tarbiya berdi, xattotchilik, tarjimonlik bilan ham shug‘ullandi. Shulardan bolalariga arab alifbosidagi turkiy tilidagi alifbe, o‘qish kitob, Musonoma nomli kitoblarni yozdi. Tarjimonlik bilan shug‘ullanib, Abduqodir Bedil asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi, lug‘at, risolalar yaratdi. Yana bir jihati bor ediki, Nizomiddin oxund husnixat ilmini juda yaxshi o‘zlashtirib olgan edi va husnixati juda chiroylik va mukammalligi bilan ajralib turar edi.

Nizomiddin oxundning vafoti esdalik kundaliklarida quyidagicha qayd qilingan: “Tarix Nizomiddin oxund eshon, hijratning 1389-yil zulqa‘da oyining 24-kuni, juma oqshomi vafoti voqeaya bo‘ldi, milodiy 1970-yil 29-yanvar kuni”.

Nizomiddin oxund 80 yil umr ko‘rdi, uch davlat siyosati, Xiva xonligi, Xorazm Respublikasi va “qizillar” davlati siyosati davrida hayot kechirdi. Umrining xonlik davrida diniy, dunyoviy ta‘lim olgan bo‘lsa, Xorazm Respublikasi davrida ta‘lim sohasida faoliyat ko‘rsatdi. Sobiq SSSR davrida taqibda hayot kechirishga majbur bo‘lib, ko‘p zahmatlar chekkan bo‘lsa-da, xalq orasida hurmatga sazovor bo‘ldi, xalq hurmat qilib, Oxund bobo deb tilga olardi. Oxund bobo haqida hozirgi kunda ham ibratli hikoyalar bilan esga olishadi. Haqiqatdan ham umrining yarmini ta‘qib ostida yashagan bo‘lsada, ibrat olishga arzidigan jihatlari ko‘p edi. Nizomiddin oxund Saodatjon aya bilan Xurshidaposhsho, Zaynabjon, Xaticha va Qodirbergan maxdum farzandlariga ta‘lim-tarbiya berib katta qilishdi. Hozirda Zaynabjon va Xaticha ayalar otabobolari hayoti haqida tez-tez eslashib, nabira va evaralariga so‘zlab, hayot kechirishmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umid Bekmuhammad. Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi. “Milleniumus print” nashriyoti. Urganch – 2024-yil.
2. Umid Bekmuhammad. “Xorazmlik jadidlar. Boboaxon Salimov”. Ilmiy-ommabop risola. “Durdona nashriyoti”. Buxoro – 2022-yil.
3. Qozikalon Muhammad Salim oxund kundaligi. Shaxsiy fond.
4. Nizomiddin oxund Muhammad Salim oxund o‘g‘li kundaligi. Shaxsiy fond.
5. Abdulla Boltayev. Ko‘k hoshiyali daftar. Avlodlari shaxsiy fondi.

**FALSAFA****MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT CHASHMASI**

**Maksuda  
XAJIYEVA**

**Urganch davlat  
universiteti Ijtimoiy  
ish va falsafa  
kafedrasi mudiri,  
falsafa va  
pedagogika fanlari  
doktori, professor**

**UO'K 570.511**

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada Konisbay Yusupovning hayoti va ilmiy faoliyati yoritib beriladi. Uning Qoraqalpog'istonda ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.*

**Аннотация:** *в статье описывается жизнь и научная деятельность Конысбая Юсупова. Анализируется его вклад в развитие науки в Каракалпакстане.*

**Annotation:** *this article describes the life and scientific activity of Konysbay Yusupov. His contribution to the development of science in Karakalpakstan is analyzed.*

**Kalit so'zlar:** *Qoraqalpog'iston, Chimboy, adabiyot, folklor, kafedra, doktorant.*

**Ключевые слова:** *Каракалпакстан, Чимбой, литература, фольклор, кафедра, докторант.*

**Key words:** *Karakalpakstan, Chimboy, literature, folklore, department, doctoral student.*

Ilm – ruh ozig'i. Insoniyat ilm bilan haqiqiy saodatni qo'lga kiritadi, uning sharofati bilan yuksaladi. Ilm ustozning sa'y-harakati bilan egallanadi. Ustozlar bejizga payg'ambarlarning merosxo'rlari deb e'zozlanmagan. Qur'oni Karimda o'zi egallagan ilmni boshqalarga o'rgatgan ustozlarning sha'ni-sharafi naqadar ulug'ligi haqida bunday marhamat qilinadi: "...Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni baland daraja (martaba)larga ko'tarur" (Mujodala surasi, 11-oyat). Har bir insonning o'z tarbiyachilari (ota-onalari) bo'lganidek, o'z ustozlari ham bo'ladi. Zero, inson hayotida ota-ona qatorida ustozning roli beqiyos katta va muhimdir. Ota-ona farzandga hayot baxsh etsa, ustoz unga ilm, bilim beradi. Insoniyat jamiyatining ilg'or va yetakchi tomonlari nimalardan iborat ekanini, hayot taraqqiyotining bosh yo'lini va kelajagi porloq kuchlarni nimalar tashkil etishini, hayotdan orqada qolmaslik uchun qaysi tomonga qarab yurish va nimalar qilish lozimligini, o'suvchi narsa nima-yu, taraqqiyotga g'ov narsa nima ekanini anglab olishga ko'maklashadi.

Xalqimiz tomonidan "Ustoz ko'rmagan shogird har tomonga yo'rg'alar", "Qadring bilgan ustozingdan ayrilma" kabi maqol va hikmatli so'zlarning yaratilishi bejiz emas, albatta. Insonning, xususan, yosh avlodning turmushdan o'z o'rnini topishida ustozlarning o'rnini, xizmati buyuk bo'lgani uchun ham ajdodlarimiz qadim-qadimdan buyon ustozlarni yuksak qadrlab keladi. Hatto, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz ham ustoziga cheksiz hurmat ko'rsatgan.

U “vafot etsam xokimni pirim, ustozim Said Baraka qabri poyiga qo‘yinglar”, – deb vasiyat qilgan.

Yana shunisi ham ma’lumki, har kim ham haqiqiy ustoz bo‘lavermaydi.



Ham dili pok, ham ishi va so‘zi pok ustoz bo‘lish uchun Xudo bergan tug‘ma qobiliyatdan tashqari, tom ma’noda halol, insonparvar bo‘lish, qiyinchiliklarga bardosh bera olish, og‘ir mehnatdan qochmaslik, igna bilan quduq qazishga chidash xislati va ko‘nikmasi ham bo‘lishi kerak. Ana shunday xislatli, shogirdlari uchun tom ma’noda haqiqiy yo‘lchi yulduz bo‘lib, ularning yo‘lini yorita oladigan ustoz va murabbiylar nafaqat uzoq o‘tmishda, balki bugun ham mavjuddir.

Biz ularni har qancha e‘zozlamaylik va ulug‘lamaylik, baribir kamlik qiladi. Zero, Hazrat Navoiy aytganidek:

Haq yo‘linda kim sanga bir harf o‘qutmish ranj ila,  
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Bunday ustozlarning ona Vatan va xalq manfaati yo‘lidagi zahmatli, fidokorona hamda beminnat xizmatlari bahosi yo‘qdir. Shunday yuksak sharafga munosib, ma’naviyat va ma’rifat bulog‘i, tafakkur ziyosi va chin insoniy fazilatlari bilan ko‘plab shogirdlarining qalbidan joy ola olgan, ularga nafaqat Ustoz, balki kezi kelganda mehribon ota, chin do‘st, sirdosh bo‘lgan ustozlarimizdan biri, pedagogika fanlari doktori, professor Yusupov Konisbay Abilovichdir.

Konisbay Abilovichni men uzoq yillardan buyon bilaman. Ustozning mamlakatimizda pedagogika ilmi taraqqiyoti, xalqimiz ma'naviyati, ma'rifati, tafakkurini yuksaltirish yo'lida qilgan tinimsiz izlanishlari, fidokorona mehnatlari har qanday yuksak unvonga munosibdir.

Ustoz Yusupov Konisbay Abilovich 1964-yil Qoraqalpog'iston Respublikasi, Chimboy tumanida tug'ilgan. 1986-yili Nukus davlat universitetini qoraqalpoq tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. Chimboy tumanidagi 15-maktab o'qituvchisi (1986-2003-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti va folklori kafedrasida assistenti (2003-2006-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti (2006-2009-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti adabiyot nazariyasi va adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti (2009-2012-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti adabiyot nazariyasi va adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri (2012-2015-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq tili va adabiyoti kafedrasida mudiri (2015-2017-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida mudiri (2017-2023-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida dotsenti (2017-2022-yillar), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida professori (2022-2023-yillar) lavozimlarida faoliyat olib borgan. Bugungi kuni Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida mudiri (2023-yildan buyon) lavozimida faoliyat olib boradi.

2003-yildan buyon filologiya fanlari nomzodi. Nomzodlik dissertatsiyasini 2002-yil 3-mayda Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi D067.10.01 raqamli ixtisoslashgan kengashida "Qoraqalpoq adabiyotida Aydos biy obrazi" mavzusida 10.01.02 – "Hozirgi milliy adabiyoti (qoraqalpoq adabiyoti)" ixtisosligi bo'yicha muvaffaqiyatli himoya qilgan. Nomzodlik diplomi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2003-yil 22-mayda tasdiqlangan (2003-yil 22-may, 94/1-sonli bayonnoma. Diplom 01.007691-sonli).

Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy kengashining tavsiyasiga ko'ra 2012-yil 31-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan "Adabiyot nazariyasi va o'qitish metodikasi" ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga tasdiqlangan. 2021-yildan buyon pedagogika fanlari doktori. Doktorlik dissertatsiyasini 2021-yil 6-avgustda Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli ilmiy kengashida "Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi (tashkil etish shakllari, darsdan tashqari mashg'ulotlar)" mavzusida 13.00.02 – "Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (filologiya fanlari)" ixtisosligi bo'yicha muvaffaqiyatli himoya qilgan.



Yusupov Konisbay Abilovich muntazam xalqaro konferensiya va ilmiy seminarlarda ishtirok etib boradi. Jumladan: 2018-yilda Ostona, 2020-yilda AQSH, Qozon, 2021-yilda Berlin, Portugaliya, Shvetsiya, Tokio, Isroil, Lissabon, Madrid, Ispaniya, Qozon, Parij, Nukus, 2022-yilda Turkiya, Nursulton, Rossiya, Ispaniya, Texas, Parij, Nukus, 2023-yilda London, Niderlandiyada qatnashgan.

Yusupov Konisbay Abilovich Qoraqalpoq davlat universiteti jamoasida katta obro‘ va e‘tiborga ega bo‘lib, samarali ilmiy va pedagogik faoliyat olib bormoqda. U ayni paytda oliy o‘quv yurti talabalari uchun yangi o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar tayyorlamoqda hamda tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga rahbarlik va maslahatchilik qilmoqda. Konisbay Abilovichga tabiat tomonidan in‘om etilgan iste‘dod bu ustoz orqali shogirdlariga, yosh avlodga taqdim qilingandir. Ustoz bor bilimini, butun ilmini har bir shogirdiga erinmasdan tushuntira oladi va ilm yo‘lida to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata oladi. Shogirdning unib-o‘sishi, kelajakda qanday inson bo‘lishi, birinchidan, uning ota-onasi, oilasiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, uning yo‘lchi yulduzi, yo‘lboshchisi ustozlariga bog‘liqdir. Shunday ekan, kelajakda xalqning ma‘naviy boyligini yaratadigan iste‘dodli shogirdlarni ko‘z qorachig‘iday, gard yuqtirmay asrash, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash va qadrlash, kamol toptirish hayot taqozosidir. Shunday qilinsa, ularning ilhomiga ilhom, kuchiga kuch qo‘shiladi. Natijada ularning ijodiy mehnatlari yanada samarali va unumli bo‘ladi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ustozning odamiylik, mehribonlik, mehnatsevarlik, tantilik, atrofidagi tanish va notanish kishilarga xolisona ko‘maklashish, madadkor bo‘lish, yaxshilik ustiga yaxshilik qilish, har kuni xayrli va savobli ishlarni bajarish singari ajoyib xislatlarini doimo his etib, ulardan bahra olganman. Hayotda saboq, ibrat va hikmat ko‘p. Asosiysi, ana shularni o‘rganib, o‘zlashtirib olishda va ularga ixlos bilan amal qilishda, xalq manfaati va ona Vatan taraqqiyoti uchun halol xizmat qilishdadir. Zotan, bu sohada ilmning, ilmli bo‘lishda esa shogirdlarga ilm o‘rgatuvchi, saboq berib, ibrat bo‘luvchi ustozimizning xizmati benihoya qimmatlidir. Professor R.Usmonov o‘zining “Saodatnoma” asarida quyidagilarni yozadi: “Ustoz yorug‘lik manbaiga, shogird esa yoritiladigan maydonga o‘xshaydi. Manba maydonga qanchalik yaqinlashsa, maydon yorug‘lik nurlaridan ko‘proq bahramand bo‘ladi”. Darhaqiqat, ustoz aql binosini yangi ilm bilan to‘ldiruvchi zotdir.

Ustoz Konisbay Abilovich! Siz yaratgan boy ilmiy merosdan bahramand bo‘lish, Sizing chin insoniy fazilatlaringsizdan andoza, ibratli hayot yo‘lingizdan saboq olish biz shogirdlaringizni ilm-ma‘rifatning cho‘qqisi tomon yetaklaydi. Yoshlar doimo Siz kabi ustozlarning ulug‘ ishlaridan g‘ururlanadilar hamda Siz bilan zamondosh bo‘lib, Sizga shogird bo‘lganlaridan faxrlanadilar.

**FALSAFA****TALABA-YOSHLARDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISH HAMDA RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI VA ROLI**

**Shamshir  
BEKNAZAROV**

Urganch davlat  
universiteti  
Pedagogika fakulteti  
Tasviriy san'at va  
muhandislik  
grafikasi kafedrası  
o'qituvchisi

**UO'K 75.056**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada talaba-yoshlarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishdagi tasviriy san'atning o'rni va o'sib kelayotgan yosh avlodga estetik tarbiya berishning muhimligi haqida fikrlar yuritilgan.*

***Аннотация:** в статье рассматривается роль изобразительного искусства в формировании и развитии эстетического вкуса у студентов и важность эстетического воспитания молодого поколения.*

***Annotation:** this article discusses the role of fine art in the formation and development of aesthetic taste among students and the importance of providing aesthetic education to the young generation.*

***Kalit so'zlar:** estetik tarbiya, tasviriy san'at, badiiy-estetik, did, tarbiya, madaniyat, tabiat, mahorat.*

***Ключевые слова:** эстетическое воспитание, изобразительное искусство, художественно-эстетическое, вкус, образование, культура, природа, мастерство.*

***Key words:** aesthetic education, fine art, artistic-aesthetic, taste, education, culture, nature, skill.*

Talaba-yoshlarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishda tasviriy san'atning tur va janrlariga oid materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazaridan ham Kamoliddin Behzod ijodi alohida e'tiborga molik. Zero, Kamoliddin Behzod o'z ijodiy izlanishlari bilan nafaqat miniatura san'atini mustaqil san'at turi sifatida shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini belgilab berdi, balki tasviriy san'atning alohida janri – portret janriga asos soldi. Uning Sharq tasviriy san'atining portret janri rivojiga qo'shgan hissasini ikki omilda ko'rish mumkin. Birinchidan, u jamoaviy portret ishlash amaliyotini joriy qilgan bo'lsa, ikkinchidan, ustoz musavvirning tasviriy san'at maktabidan ko'plab uning shogirdlari va izdoshlari yetishib chiqdi va uning ijodiy maktabini munosib davom ettirdilar"<sup>1</sup>.

Estetik tarbiya tizimi yoshlarning badiiy-estetik faoliyatining axloqi va dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, jamiyatni yangilash va demokratlashtirish

<sup>1</sup> Badiiy ta'limda innovatsion jarayonlar: rivojlanish strategiyasi, nazariyasi va amaliyoti./T.:Impress media. – 2021. – 172-bet.

jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi tamoyiliga asoslanadi. Shaxsning yuksak badiiy ko‘rinishlarga moyilligi, uning hayotning estetik hodisalari bilan tabiiy bog‘lanishi real hayotga estetik munosabatni shakllantiradi.



Estetik tarbiya tizimida mehnat muhim o‘rin tutadi. Tub iqtisodiy islohotlar sharoitida odamlarning estetik talabi va didi tobora ortib borayotganini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Zamonaviy estetik mezonlarga javob beradigan mehnat faoliyati, ishlab chiqarish va iste‘mol madaniyati va go‘zallik ideallari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik estetik tarbiya tizimining tarkibiy qismi sifatida ishlaydi. Bunda badiiy-estetik tarbiya bozor iqtisodiyoti munosabatlarning kelajakdagi ishtirokchisining rivojlangan jamiyat a‘zosi sifatida shakllanishini ta‘minlaydi.

Yosh avlodga estetik tarbiya berishda tabiiy go‘zallikni qadrlash muhim o‘rin tutadi. Estetik tarbiyaning muvaffaqiyati yoshlarda tabiat ko‘rinishlariga qiziqish va hurmatni singdirish, tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyatga munosabatni shakllantirish bilan belgilanadi. Yoshlar tabiatga zarar yetkazish, uning boyliklarini talon-toroj qilish, atrof-muhitni ifloslantirishni yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan xato deb tushunishga qodir. Tabiat yoshlarda yuksak ma‘naviy tuyg‘ularni uyg‘otadi, ularni o‘z ona zaminining sirli go‘zalligiga bog‘laydi, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantiradi. Demak, tabiatga estetik munosabat yoshlar ma‘naviyatini rivojlantiradi, tabiatga yaqinlik ularning ma‘naviy dunyosini boyitadi.

Kamoliddin Behzodning ijodiy an‘analari O‘zbekiston professional

rangtasvirining dastgoh hamda monumental rangtasvir amaliyotida o‘ziga xos yondashuvlarda davom ettirilmoqda. Jumladan, XX asrning 30-yillarida Usta Mo‘min (Nikolayev) ijodida, 50 – 60-yillarga kelib Chingiz Ahmarovning Sharqning yetti go‘zali, Shamsiro‘y Hasanovanning o‘zbek shoiralari obrazlaridan iborat turkum portretlari, bugungi kunda Nodira Oripovanning “Afrosiyob malikalari” nomli turkum kompozitsiyalarida Behzod ijodining zamonaviy interpretatsiyasini ko‘rish mumkin. Bu omillar Kamoliddin Behzod ijodiga oid materiallar asosida yoshlarning estetik didini yuksaltirish uchun boy manbaga ega ekanligimizdan dalolat beradi”<sup>2</sup>.

Chizish qobiliyati har doim odamlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan, u odamlar o‘rtasidagi muloqot vositalaridan biri bo‘lgan. Inson qadim zamonlardan beri suratga olishga qodir va ularni yaxshi ko‘radi. Buni arxeologlar tomonidan qadimiy g‘orlardan topilgan qoyatosh rasmlari tasdiqlaydi. O‘sha paytda odamlar allaqachon go‘zallikka jalb qilingan. U tevarak-atrofdagi tabiatning go‘zalligini, yovvoyi hayvonlarni kuzatgan, ayol qiyofasi nozikliklarini tosh yuzasida ibtidoiy mahorat bilan aks ettirgan. Qadimgi inson dunyoga rassomlik, haykaltaroshlik, me‘morchilik, amaliy san‘at, mengirlar, dolmenlar, tepaliklar, tosh ustunlar va boshqalar kabi san‘at turlarini berdi. Ijodiy tomon vizual savodxonlikni o‘rganishda doimiy rivojlanishni talab qiladi, bu o‘qituvchining badiiy tasavvurni, vizual xotirani, estetik moyillikni, ma‘naviy rivojlanishni rivojlantirishga e‘tibor qaratish zarurligini anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, bu fazilatlarni rivojlantirish tasviriy san‘at vositalaridan malakali foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bilan bir vaqtda zarurdir.

O‘qituvchi uchun esa eng qiyin vazifa – bu san‘at vositalaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha o‘z mahorat va ko‘nikmalarini rivojlantirish, shu bilan birga har bir shaxsning rivojlanishiga yordam berishdir. Yoshlarda bu rivojlanish san‘atni idrok etish jarayonida, mustaqil ijodiy faoliyatda sodir bo‘ladi. San‘atni idrok etish, u bilan muloqot qilish badiiy faoliyatning eng qulay shaklidir. Ehtiyotkorlik bilan qaraydigan bo‘lsak, Kamoliddin Behzod asarlari boshqa musavvirlarga ham chuqur ta‘sir ko‘rsatib, nafaqat badiiy yangilik nuqtai nazaridan muhim, balki Eron rangtasviri taraqqiyotiga ta‘siri jihatidan ham yuksak hurmatga sazovor bo‘lganini ko‘ramiz. Boshqacha aytganda, uning rasmidagi yig‘inlar va pardalar Eron rassomligi olamida yangilik paydo bo‘lgan jurnaldir. Yana shuni aytish mumkinki, Behzod boshqa ijodkorlar uchun yangi ufqlar ochgan va Xoja Sheroz ta‘biri bilan aytganda, yangi reja yaratgan<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Badiiy ta‘limda innovatsion jarayonlar: rivojlanish strategiyasi, nazariyasi va amaliyoti./T.:Impress media. – 2021. -172-bet.

<sup>3</sup> Белинская Н. Миниатюра как источник изучения изобразительного искусства XV-XVII вв. // Очерки истории и теории культуры таджикского народа: Сб. статей. Душанбе, 2001. - С. 91 — 110.

Yosh avlodning tasviriy san'atning turli turlariga qiziqishini uyg'otar ekan, shuni yodda tutish kerakki, san'atni chinakam, shaxsiy idrok etish kimgadir yuklanmaydi, u iloji boricha tabiiy va cheksiz bo'lishi kerak. Biroq san'atning estetik idrokining chuqurligi u bilan uchrashish chastotasiga emas, balki bu uchrashuvlarning sifatiga bog'liq. Shuning uchun asarlarning ajoyib badiiy qadriyatlarini tanlash juda muhimdir. San'atning har bir turi o'ziga xos ta'sir vositalariga ega bo'lib, yosh avlodning estetik tarbiyasiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, yoshlarimiz hayotida turli xil san'at turlari uning shakllanishining turli bosqichlarida hech qanday teng pozitsiyani egallamaydi. Kamoliddin Behzod kartina va miniaturalarida tuyg'u va aql nozik hamda badiiy mutanosibdir. Darhaqiqat, uning insonga qarashi rang va chiziqlardan foydalanish uslubiga, umuman olganda, asarlari tuzilishining qonuniyatiga to'la mos keladi. Bu gumanistik mazmun va u bilan bog'liq shakl Eron rassomligi tarixida misli ko'rilmagan. Behzod yangi maktab yaratadi, lekin shogirdlari uning yangiliklariga kamroq ergashadigan, mahoratli uslubiga ko'proq jalb qilinganga o'xshaydi. Biroq uning maktabidan Isfahon maktabigacha davom etgan chiziqni tanib olish mumkin.

Tasviriy san'at o'qituvchisi tushunchasi yoshlarning tasviriy san'at bilan muloqotga bo'lgan ichki ehtiyojini tarbiyalashdan iborat. Mustaqil ijodiy faoliyatda, u bola, o'quvchi, talaba yoki oddiy odam bo'ladimi, ular o'z bilim va ko'nikmalarini mehnatda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tasviriy san'at to'garaklarida qatnashib, san'at maktablari, musiqa, teatr, raqs to'garaklariga borib, u yoki bu san'at qonuniyatlarini amalda o'rganib, shaxs sifatida boyib boradi. "Yoshlarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishda tasviriy san'atning qonuniyatlarini bilish ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Sharq va G'arb tasviriy san'atining o'ziga xos jihatlarini anglash va to'g'ri talqin qilish yuqori darajadagi estetik didning muhim parametrlaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda Behzod nafaqat sharqona tasviriy san'at qonuniyatlarini mukammal egallagan usta tasvirchi, realistik rangtasvir va qalamtasvirning akademik usul va an'analari mukammal egallagan, Sharq va G'arb tasviriy san'atining ibratli jihatlarini sintetik tarzda qo'llagan, yaratayotgan asarlariga yuksak darajadagi mazmun va mohiyat kasb etuvchi vositalarni o'ziga xos mahorat bilan tatbiq etuvchi ijodkor sifatida, balki "...ruhiyat rassomi ekanligi, borliqning mohiyati haqidagi teran falsafiy mushohadalarni ifodalashda tengsiz mahorat egasi bo'lgani, moddiy hayotdan ma'naviy hayotni ustun qo'ygani aniq namoyon bo'lishi uning asarlarida o'zining yorqin ifodasini topganligi bilan ham

e'tiborlidir"<sup>4</sup>.

Behzodning iqtidorini hamma narsadan ko'ra shogirdlari ijodida ko'rish mumkin. Uning Qosim Ali, Og'a Mirek kabi shogirdlaridan ba'zilar ozmi-ko'pmi o'z ijodida ustozlik darajasiga yetishgan. Behzoddan qariyb yarim asr o'tib, Safaviylar davrida miniatura tasvirining uslubi yana bir bor o'zgargan bo'lsa-da, uning qudratini rassomlar ijodida ko'rish mumkin. Hirot rassomlari Behzod uslubini Buxoroga olib borib, Shiboniylar oilasi saroyida o'rgatgan. Hijriy 926-yilda nashr etilgan "Mehr va Mushtariy" kitobi Buxoroda transkripsiya qilingani Behzod usulining Tabrizga qaraganda Buxoroda yaxshiroq saqlanganligini ko'rsatadi. Ba'zi rassomlarning ko'chishi Hindistonda Behzod uslubini targ'ib qildi.

Zamonaviy jamiyatimiz uchun, bugungi oila, maktablar, universitetlar uchun bu muammo alohida ahamiyatga ega. Zero, mavjudlikka rivojlangan estetik munosabat bolaning, maktab o'quvchisining, talabaning har tomonlama rivojlangan shaxsi haqidagi g'oyadan ajralmasdir, uning san'at bilan aloqasi axloqiy va estetik rivojlanishga yordam beradi. Bularning barchasini tahlil qilsak, amalda axloqiy muammolarni hal qilish, yosh avlodda kimgadir taqlid qilish istagini uyg'otish, boshqalardan farqlash mumkin – xuddi atrofimizdagi odamlar haqida. Yaqin atrofda yashovchi odamlarning misoli (ijobiy va salbiy) kuchi bilan. Tabiat o'zining mavjudligi bilan ham qadrli ekanligini, u ham insondan o'z maqsadlari uchun bir tomonlama foydalanishni emas, balki teng muloqotni kutishini tushunish qiyinroq. Ammo bugungi kunda tabiatga munosabat ham insonning muhim axloqiy xususiyati sifatida qaralsa, ajablanarli emas.

San'atni idrok etish uchun rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar asarlarida bo'sh narsa yo'q; undagi birorta kichiklikni (tovush, nuqta, zarb, chiziq) chetlab o'tmaydi: axir shaklni to'liq idrok etish orqaligina badiiy mazmunning to'liqligini idrok etish mumkin. Asarni shaxs sifatida ko'p darajada shakllangan va estetik rivojlanish yo'lidan o'tgan, asarning ichki mazmuniga ishorani o'ziga xos, bevosita idrok etilgan xususiyatlardan izlashga o'rgangan odamgina idrok qilishi mumkin.

---

<sup>4</sup> Badiiy ta'limda innovatsion jarayonlar: rivojlanish strategiyasi, nazariyasi va amaliyoti./T.:Impress media. – 2021. 172-173-betlar.

**FILOLOGIYA****SAMOYLOVICHNING XORAZM FOLKLORSHUNOSLIGI  
RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI****Aynur Oydin**

**Ozarbayjon Milliy bilimlar  
akademiyasi  
folklorshunoslik instituti  
katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori**

**Umid  
Bekmuhammad**

**Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori**

**UO‘K 821.**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada rossiyalik sharqshunos olim A.Samoylovichning Xiva xonligiga qilgan ilmiy ekspeditsiyasi va unda to‘plagan materiallari yoritib berilgan. Shuningdek, Samoylovichning Xorazm folklorshunosligi bo‘yicha qilgan tadqiqotlari tahlil etilgan.*

***Аннотация:** в статье описывается научная экспедиция русского востоковеда А.Самойловича в Хивинское ханство, а также анализируются собранные им там исследования фольклора Хорезма.*

***Annotation:** this article describes the scientific expedition of the Russian orientalist A.Samoylovich to the Khanate of Khiva and the materials he collected there. Samoylovich's research on the folklore of Khorezm is also analyzed.*

***Kalit so‘zlar:** Xorazm, Xiva xonligi, Feruzxon, matbaaxona, folklorshunoslik, ertak, afsona, ekspeditsiya.*

***Ключевые слова:** Хорезм, Хивинское ханство, Ферузхан, типография, фольклор, сказка, легенда, экспедиция.*


***The keywords:** Khorezm, Khanate of Khiva, Feruz Khan, printing house, folklore, fairy tale, legend, expedition.*

Aleksandr Samoylovich garchi mutaxassisligiga ko‘ra sharqshunos bo‘lsada, o‘z faoliyati bilan nafaqat bu soha rivojiga, shuningdek Xorazm folklorini o‘rganishga ham katta hissasini qo‘shgan olimdir. Ma’lumki, har bir elning boshqa bir hududdagi aholinikidan ajralib turadigan urf-odat, marosim, qo‘shiq va laparlari bo‘lgani singari, joyning oqil va dono kishilari, keksalari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ertak, afsona va

rivoyatlari ham bo‘ladi. Tabiiyki, o‘tmishda xorazmlik ajdodlarimiz ham ko‘pgina ertak, rivoyat hamda afsonalar yaratib bolalarga so‘zlab berganlar.

Ma‘lumki, rossiyalik sharqshunoslar azaldan O‘rta Osiyo, xususan, Xorazmga g‘oyat qiziqib kelganlar va bu hududlar olim va sayyohlar, savdogarlar uchun tadqiqot va tekshirish makoni, manbasi bo‘lib kelgan. Xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘lkamiz chor Rossiyasi istibdodida bo‘lgani uchun, avvalgiga qaraganda rus sharqshunoslarining O‘rta Osiyoga kelib, ilmiy ishlar qilishi osonlashdi.

Bu borada V.Bartold, P.Melioranskiy, V.Radlov, A.Divayev, N.Ostroumov, A.Kushkevich kabi tadqiqotchilar faollik ko‘rsatib, O‘rta Osiyoning turli sohalarini qamrab olgan keng ko‘lamdagi salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Ular orasida sharqshunos A. Samoylovichning Xorazm folklori borasida qilgan ishlari katta ahamiyatga ega.



1880-yilda Nijniy Novgorodda tug‘ilgan Aleksandr Samoylovich shaharga kelgan O‘rta Osiyolik savdogarlarning ko‘rinishi, o‘zini tutishi, gaplashish ohanglariga maftun bo‘lib, sharq xalqlari hayot tarziga qiziqib qoladi. Natijada ana shu qiziqish uni Sankt Peterburg universitetining sharqshunoslik fakulteti arab-fors-tatar-turk tillari bo‘limida tahsil olishga undadi.

A.Samoylovich faqat nazariy bilimlar bilangina qanoatlanib qolmay, bevosita sharqqa, O‘rta Osiyoga tashrif buyurishga ham intildi. Ana shu intilish sabab, Aleksandr Nikolayevich ustoz P.M.Melioranskiy topshirig‘iga ko‘ra 1902-yilda Xiva xonligiga keladi. Yetuk sharqshunos sifatida tanilgan P.M.Melioranskiy turkiy tillarni o‘rganishda folklor va etnografik materiallardan qiyosiy manba sifatida foydalanishning ahamiyatini yaxshi bilgan. Shu bois shogirdi garchi maxsus folklorshunoslik nazariyasiga ega bo‘lmasa-da Samoylovichga Xorazm xalq ertak, afsona va rivoyatlarini yozib kelishni uqtiradi. Ana shu sabab Samoylovich bir umr Xorazmning maftuni bo‘lib qoldi va o‘lka tarixi, adabiyoti, san‘ati, folklori bo‘yicha yaratgan asarlari bilan dunyoga yetuk sharqshunos sifatida ham tanildi.

P.M.Melioranskiy shogirdi Aleksandr Samoylovichga, yana bir Rossiyalik mashhur sharqshunos N.F.Katanovning “Sibir va Sharqiy Turkistondan maktublar” asari bilan tanishib chiqishni maslahat bergandi. Negaki, N.F.Katanov Sibir va Sharqiy Turkistonda istiqmat qiluvchi turkiy xalqlarning urf-odatlarini, marosimlari, irim, tush ta‘birlari, xalq tabobati, urug‘chilik munosabatlari, atamalari, amaliy san‘at, hunarmandchiligi, ularning o‘xshash jihatlarini keng



miqyosda tahlil qilgandi. A.Samoylovich ustozi maslahatiga amal qilib, N.F.Katanov kitobi bilan tanishibgina qolmay, shu asosda keyinchalik “Профессор Н.Ф.Катанов первый ученый из абаканских турков” (“Жизнь Бурятии”, 1924, №6) nomli maqola ham yozgandi.

Xullas, 1902-yildagi Xorazm safari va turli bekliklarda bo‘lishi asnosida u Xorazm shevasi, lahjalari orasidagi farq va folklorini o‘rganishga alohida e’tibor qaratdi. Oradan bir oz vaqt o‘tib, u yana 1908-yilda Xorazmga tashrif buyurdi.

Ushbu safari paytida u Xiva xoni Muhammad Rahimxon II – Feruzxon bilan uchrashadi. A.Samoylovich olim sifatida Feruzxonni shunday tasvirlab o‘tgandi: “Hozirda hukmdor bo‘lib turgan Sayid Muhammad Rahim ma’rifatli shaxsdir. U fan va san’at homiysi hisoblanib, bu mamlakatni o‘rganishimga astoydil yordam berishini izhor qildi. Xiva xoni hatto o‘zining shaxsiy kitob xazinasi bilan tanishishimga ham ruxsat berdi. Men uning Ark va Tozabog‘dagi kutubxonalarida bo‘ldim. Turkiy tildagi qo‘lyozmalarga asosiy e’tiborimni qaratdim. Ikki marta Tozabog‘dagi xon bosmaxonasini ko‘zdan kechirdim” (“Краткий отчёт о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинского ханства в 1908 году”, Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. №9 .Санкт-Петербург, 1909, с-21).

Samoylovichning ta’kidlashicha, “Feruzxonning kitobga, undan nusxa ko‘chirishga ishtiyoqi junun darajasida bo‘lgan. Feruzxon davlat boshqaruvidan toliqqan paytlarida, kutubxonaga kirib, xattotlar tomonidan ko‘chirilgan yangi kitoblarni varaqlashni yaxshi ko‘rgan”.

Bu paytda Feruzxonning eng sevimli asosiy ikkita kutubxonasi bo‘lib, biri qishki qarorgoh – Ko‘hna Ark ichkarisida, yana biri yozgi qarorgoh – shahar tashqarisidagi Tozabog‘ saroyida joylashgandi. Ushbu kutubxonalarda kitoblarga oid kataloglar tuzilgan, kitoblarning muqovalariga ularning nomlari bitilgan yorliqlar yopishtirilgan edi. A. Samoylovichning ta’kidlashicha, “Feruzxonning qishki kutubxonasi Ko‘hna Arkning g‘arb tomonidagi binoning yuqori qavatida, chog‘roqqina xonada joylashgandi. Xonaning shimol tarafi devorida yopiq javon, kunbotar tarafida esa ikkita oynavand eshikchali javon turardi. Javonlarning birida kichkinagina qo‘lyozma katalogda 500 ta qo‘lyozma va kitoblarning nomi hamda raqamlari ko‘rsatilgan. Kunbotar tarafdagi javonda esa tibbiyotga oid ko‘plab kitoblar mavjud. Orqadagi javonda bo‘lsa, tarixiy, tasavvufiy hamda siyosatga oid asarlar, har xil qo‘lyozma va bosma kitoblar bor edi. Kitoblar asosan fors tilida, arabchasi kamroq. Turkiy tilidagi adabiyotlar esa chig‘atoy turkiysi, usmonli hamda qozoniy-tatar (no‘g‘oycha) edi” (A.N.Samoylovich “Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня”, Материалы по среднеазиатско-туреской литературе).

1908-yilda Tozabog‘dagi Feruzxonning kutubxonasini ko‘rishga muvaffaq bo‘lgan A.Samoylovichning yozishicha, u yerda hammasi bo‘lib 200 ta atrofida bosma va qo‘lyozma kitoblar mavjud bo‘lgan. Har bir qo‘lyozmaning muqovasi chetiga oppoq qog‘ozda yorliqcha yopishtirilgan bo‘lib, unga kitob nomi, jildi hamda qo‘lyozma va bosma asar ekanligi va mavzusi, ya‘ni nasr yoxud nazmda bitilganligi qayd etilgan. Samoylovichning aniqlashicha, Arkdagi kutubxonada katalog bo‘lgani holda, Tozabog‘dagi kutubxonada katalog yo‘q bo‘lgan.

Aleksandr Nikolayevich Samoylovich o‘zining “Xiva saroyi kitob asrovxonasi va toshbosmasi” nomli tadqiqot ishida o‘sha vaqtda valiahd bo‘lgan Isfandiyor to‘ra (keyinchalik 1910 – 1918-yillarda Xiva xoni) va bosh vazir Islomxo‘jalar bilan uchrashganligi, ularning ham shaxsiy kutubxonasi mavjud bo‘lganligi, o‘zining sharqshunos olim va sayyoh sifatida o‘sha kutubxonalarda bo‘lganligini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, ular A.N.Samoylovichga hadya sifatida noyob kitoblarni tuhfa qilishganini minnatdorchilik bilan qayd etadi.

Ma’lumki, Feruzxon shoir va musiqashunos sifatida o‘z saroyiga ijod va ilm ahlini to‘plagan, ularga yetarlicha sharoit yaratib bergandi. Ana shu shoirlar ijodini kelgusi avlodga kitob holda yetkazishni niyat qilgan hukmdor, “Majmuai shuaro-i Feruzshohiy” nomli bayoz tuzdirgandi. Samoylovichning Xivaga tashrifi, Feruzxon bilan uchrashuvi ana shu bayozning toshbosmada chop qilinish arafasiga to‘g‘ri keladi. Shu bois Samoylovich Feruzxon iltimosiga ko‘ra, o‘ttizdan ortiq shoirlar g‘azallari kiritilgan to‘plamga so‘zboshi yozadi: (“Собрание 30 сарских поэтов, сопутствующих Ферузу”. Хива, 1909 г, 1638 стр, (Записки восточного отделения императорского русского археологического общества. Том 19, 1909, с. 0198-0209).

Xullas, 1908-yildagi xonlikka safari A.N.Samoylovich hayotining eng yorqin sahifalaridan biri bo‘lib qoladi.

O‘rta Osiyoni tarixiy, arxeologik, tilshunoslik hamda etnografik jihatdan o‘rganish rus qo‘mitasining 1908-yil 3-oktabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida A.N.Samoylovich safari haqida maxsus ma’lumotnoma tayyorlanib, unda “Xivalik o‘zbeklar lahjasi va og‘zaki ijodini o‘rganishga alohida e’tibor berganligi” qayd etib o‘tiladi. (СПБ 1908. IV / с. 22).

Ana shu safarida turli beklıklarda bo‘lish asnosida A.N.Samoylovich Gurlanda ham bo‘lgandi. U 1908-yil 19-iyunda Rahmonbergan Otaliqning Xitoy qishlog‘idagi bog‘ida bir oz dam olib, kechga yaqin Gurlanga yetib keladi. Bu haqda u “Yo‘lda turkmanlar ovulini ko‘rdim. Gurlan okrugida (bekligida) asosan o‘zbeklar istiqomat qilishar ekan. Bu yerda o‘zbek shevasiga doir kuzatishlarimni qayd etib bordim va u yerda qangli urug‘idan bo‘lgan bir ertakchining naqlarini tingladim” (“Краткий отчет о поездке в Ташкент, Бухару и Хивинское ханство”, “Известия Русского комитета для из учения Средней Восточной Азии в ист”... СПБ. 1909.9. С. 24) – deya yozadi yuqoridagi ma’lumotida.

Biroq A.N.Samoylovich qangli urug'idan bo'lgan o'sha gurlanlik ertakchining nomini, afsuski, qayd etishni unutgan. Buni sharqshunosning o'zi ham bir maqolasida afsuslanib e'tirof etgandi.

O'sha 1908-yil 20-iyun kuni gurlanlik ertakchi A.N.Samoylovichga “Qirq yolg'on” ertagining ikki xil variantini aytib beradi. Sharqshunos gurlanlik ertakchidan eshitganlarini qog'ozga tushirib, tarix mulkiga aylantirdi va bu quvonchli hodisadir. Aynan ana shu ertakchi bilan uchrashuvidan so'ng Samoylovich Gurlandagi singari boshqa hududlardagi ertakchilar ertaklarini qiyosiy tipologik nuqtai nazardan o'rganishga kirishdi, ilmiy o'rganishga, boshqa ertaklar bilan taqqoslashga intildi.

Sharqshunos A.N.Samoylovichning Xorazmdagi o'sha paytda dong qozongan Suyov baxshi (1850 – 1915) bilan uchrashuvi, boshqa baxshilar bilan aytishuvini kuzatishi keyinchalik ana shu baxshilarning tarixda qolishiga sabab bo'ldi. Sharqshunos Samoylovich Suyov baxshidan “Go'ro'g'li” dostoni bo'yicha bir qancha ma'lumotlarni yozib oladi. Shu kabi Otash, Nurjon va Eshvoy kabi xonlik dozongan baxshilar, ularning repertuari haqida ma'lumot to'plab, shular asosida maqolalar yozadi.

Bundan tashqari, Abulg'ozixonning “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” asarlari, ularning ilmiy ahamiyatini tadqiq etish bilan shug'ullanadi. “Rus arxeologiya jamiyati Sharq bo'limi ilmiy ishlar majmuasi”ning 19-jildida “Qo'rqud va Go'ro'g'li” haqida afsona nomli maqolasini chop qildirib, unda faqat Go'ro'g'li dostoni, ularning turli variantlariga to'xtalibgina qolmay, Abulg'oziy asarlari, uning sharq tarixini o'rganishdagi ahamiyati masalasiga ham to'xtalib o'tadi.

Uning ertak, afsona va rivoyatlarni ilmiy jihatdan o'rganib, rus tilida nashr qilishi olimga dovrug' keltirdi. Rus jo'g'rofiya jamiyati etnografiya bo'limining komissiyasi a'zosi, jamiyat ta'sis qilgan “Живая старина” jurnali tahrir hay'atining a'zosi bo'lishiga olib keldi.

U Xorazmda yozib olgan ertak, afsona va rivoyatlarni “Живая старина” jurnali sahifalarida muntazam yoritib bordi. Xususan, jurnalning 1912-yil 2 – 4-sonlarida Samoylovich gurlanlik qangli urug'idan bo'lgan kishidan eshitgan “Qirq yolg'on” ertagining o'zbekcha, turkmancha va qozoqcha variantlari haqidagi maqolasini chop ettiradi.

Umuman olganda sharqshunos A.N.Samoylovichning Xorazmda yozib olib, ommalashtirgan “Qirq yolg'on”, “Annamurod buva”, “Polvon ota va gunohkor ayol”, “Qaldirg'och bilan ilon”, “Pishiq afsonasi”, “Laylak bilan bulbul” kabi ko'plab ertak, afsona va rivoyatlari XX asr boshlarida ruscha

jurnalda nashr etilib, yozma manba shaklini oldi va Xorazm xalq og‘zaki ijodiga oid tarixiy silsila yanada boyidi.

Uning 1908-yil 27-maydan 7-iyungacha Xivadan Ko‘hna Urganchgacha bo‘lgan safari tassurotlarga boy bo‘ldi. Bu haqda u o‘z hisobotida shunday xotirlab o‘tgandi: “Har gal birorta manzilda to‘xtaganimizda men mahalliy aholining urug‘-qabila tarkibi tuzilishiga doir ma‘lumotlarni to‘plashga, ularning shevasiga oid o‘ziga xosliklarni ilg‘ab olishga harakat qilardim. Yo‘l-yo‘lakay turli tuman urug‘larga mansub baxshilar qo‘shig‘ini tinglardim va ularning repertuaridagi farqlarni aniqlardim.

Safar davomida, Xiva xonligida yashovchi aholining asosiy qismi so‘zlashadigan Xiva sart lahjasini o‘rganishga doir ishlarimni davom ettirdim. Ertak, hikoya, topishmoq, ibora va shevaga xos so‘zlarni yozib oldim. Joy nomlari, bozor va kasb-hunar nomlari, o‘simlik va jonivorlarning atamallari, urug‘-qabila, qavm-qarindoshlik terminlari, erkak va ayollarning ismlari, ot va it nomlari, olqish, qarg‘ish va so‘kislarni yozib oldim. Mahalliy aholi udumlari va turmush tarzini o‘rgandim”, – deya kuzatuvlarini bayon qiladi.

Ushbu safari davomida Samoylovich turkmanlarning to‘ylarini ham kuzatgan va bu haqda o‘z kuzatuvlarini shunday qog‘ozga tushirgandi: “turkmanlarning to‘ylarida tomoshabinlar ot choptirish, merganlikni ko‘rib bo‘lgach, baxshi tinglash, kurash va boshqa tomoshalarni ko‘rish uchun diametri besh sajen keladigan aylana hosil qiladilar. Bu dasht uchun original xarakterdagi hayotiy amfiteatr bo‘lib, birinchi qatordagilar cho‘kka tushib o‘tiradilar. Ikkinchi qatordagilar tik turadilar. Uchinchidagilar esa ot ustida o‘tiradilar. To‘rtinchi qatordagilar otliq, tuyaliklardan tashkil topgan holda baxshilarni kuylab tomosha qilishadi” (A.H.Самойлович “Туркестанские развлечения”, в кн: А.Н.Самойлович, Сочинения, том 2, СПб, 1909 г, стр 4).



Aleksandr Nikolayevich shu va boshqa safarlari, umuman, sharq xalqlari tarixi, etnografiyasi, folkloriga bo‘lgan mehri sabab, 1917-yilgacha Sankt Peterburg universitetida turkshunoslik, sharqshunoslikdan talabalarga saboq beradi. Ko‘plab shogirdlar yetishtirish bilan birga, ilmiy asarlar yaratadi.

Biroq 1917-yilda...

Ma‘lumki, 1917-yil oktabridan so‘ng hokimiyatga kelgan bolsheviklar siyosati bo‘yicha ziyolilar orasida ham turlicha qarashlar yuzaga keldi. Zakiy

Validiy singari mashhur sharqshunos oldiniga bolsheviklar bilan hamkorlik qilgan bo'lsa, keyinchalik ularga muxoliflik yo'liga o'tdi. Validiyning qardosh do'sti Aleksandr Samoylovich esa to umrining oxirigacha bolsheviklarga sodiq qoldi. Ularning sharq bo'yicha siyosatini amalga oshirishga ko'maklashdi. Bir necha bor Turkistonga tashrif buyurdi. Ammo bu gal sharqshunos olim sifatida oldingidek folklor namunalarini, tarixga oid bitiklarni o'rganish uchun emas, siyosiy maqsadlarda faoliyat ko'rsatdi.

Ha, Validiy shijoatli, intiluvchan shaxs, yetuk tarixchi olim edi. Shu bilan birga uning eski do'sti A.N.Samoylovich ham o'z davrining taniqli sharqshunos olimidir. Ha, kim bilandir yaxshi, kim bilandir yomon munosabatda bo'lgani, albatta, har bir shaxsning o'ziga bog'liq. Biroq tarixda Validiy Samoylovichdan uzoqlashgan bo'lsa, xorazmlik boshqa bir davlat arbobi, XXR adliya noziri Boboovun Salimov u bilan yaqinlashgan, Moskvada do'st tutingan.

Ma'lumki, Boboovun Salimov RSFSRga 1920-yil Lenin, Chicherin, Karaxanlar bilan shartnoma tuzish uchun borgan delegatsiyaga rahbarlik qilgan. Bu paytda Tashqi ishlar vazirligida ishlayotgan sharqshunos Samoylovich delegatsiyani kutib olish, ularga hamrohlik qilish bilan shug'ullanadi. Aynan Samoylovichning XXR delegatsiyasiga ma'sul qilib tanlanishiga uning o'zbek tilini bilishi, ilgari bir necha bor Xorazmda bo'lgani sabab edi.

Bu to'g'rida Boboovunning Kremlda bo'lganiga oid kundaliklarida yozilgan. Unga ko'ra, Iskandar Samoylovich (Boboovun kundaligida uni Iskandar deya tilga olgan), xorazmliklarni kutib olib, Lenin, Chicherin, Karaxan, Broydo kabi Rossiyalik davlat arboblari bilan uchrashuvlarini tashkillashtirgan, tarjimonlik qilgan. Shu kabi ikkala respublika o'rtasida imzolanaajak shartnomalarni tuzish, unga o'zgartirish kiritish kabi masalalar bo'yicha yordam berib turgan. Shuningdek, Moskvadagi Sharq davlatlari elchilari bo'lgan, yoki Rossiyaga kelgan Anvar poshsho, Nazmi Sodiqbek, Jamol poshsho, Muhammad Valixon va boshqalar bilan ham uchrashishlariga sharoit yaratadi, o'rtada tilmochlik qiladi. Bundan tashqari, XXR delegatsiyasini Moskvadagi teatr, istirohat bog'i, muzey va boshqa diqqatga sazovor joylarini aylantirish, Peterburgga borib sayohat qilib kelishlariga ham boshchilik qiladi.

Tarixdan ma'lumki, XXRlik vakillar o'z xalqi manfaatlari asosida tuzmoqchi bo'lgan shartnomaga Xorazmda vakil bo'lgan Izmaylov va boshqa mustamlakachi shovinistlar ta'siri bilan ba'zi ilovalar kiritiladi. Bu ilovalar XXR manfaatiga zid bo'lishi mumkin edi. Ana shunday damda, Kreml xonasida o'tirgan Mulla Nurmuhammad, Mulla O'rozlar savodsiz, salohiyatsiz bo'lganliklaridan, faqat Boboovungina shijoatlilik bilan ilovalarni bekor qilib, oldingi shartnomani imzolatishga intiladi. Yonidagi hamrohlari esa rus tiliga

umuman tushunmas, siyosatdan bexabar, shunchaki nomigagina vakil edilar. Shu bois ular Bobooxunga “siz nima desangiz shu”, – deya Kremlda o‘tiraverishadi. Bobooxun kundaligida ana shu damdagi Samoylovich bilan bog‘liq voqeani keltirib o‘tadi:

“Bir oz vaqtdin so‘ng mulla O‘rozni chaqirib so‘radim:

– Bu shartnoma haqinda ne fikrdasiz va bu so‘zlarni fahm qila oldingizmi?

Ul dedikim:

– Man bilmayman, siz nima qilsangiz, bizlar ham oni qilurmiz, – dedi.

Man dedim:

– Ondoq bo‘lsa, bilingkim, man bu ilovalar qo‘shilgan shartnomaga hargiz qo‘l qo‘ymasman. Chunki man Xorazmning yer-suvlari, ixtiyorini qo‘llaridan ketib, qaytadin ularni asir va mazlum qilmoqqa aslo rozi bo‘lmasman, – deb ilovalarni anga ochiq tushuntirib dedimkim:

– Man Karaxanning yonida majlis ochilgan vaqtda hamma kuchimni sarf etib, ilovalarning butunlay bekor bo‘lmog‘i uchun g‘ayrat qilurman. Ammo siz xususan Mulla Nurmuhammad og‘izlaringizga mahkam bo‘linglar. Sizlarning bir og‘iz so‘zingiz hamma mehnatni zayi qilmasun, deb qopidan chiqsam, tovarish Iskandar Samoylovich hamma so‘zlarimni tinglab, qopida turgan erkan. Dedimkim:

– Ichkari kiring, sizdan pinhon so‘zimiz yo‘q turur, – oni kirgazib o‘tirgizib dedim: – Ey birodar! Bilursizkim, bizlarning shartnomamizni boshdin oyoq mazmuni Xorazm xalqiga o‘z huquqini bermak va Rusiyadan yordam olmoq. Shartnomada boshqa bir mamlakatga zarar bo‘lgudek hech so‘z yo‘q turur! Va shundoq bo‘lsa ham buning ma‘qul bo‘lmay, bul tariqa ilovalar qo‘shilganiga hayron tururman, – deb bir necha qattiq va achchiq so‘zlarni aytdimkim, ani aytganimga so‘ng pushaymon bo‘ldim. Har nechuk javobida Aleksandr Samoylovich ham qahrlanib dedikim:

– Birodar Bobooxun! Man yolg‘iz bir tarjimon tururman, boshqa ish qo‘limdan kelmas, ammo ne chora qilurman, vazifam bo‘lganligi jihatidan bu ilovalarni tarjima qilib sizga o‘qib eshitdirdim. Ammo Karaxanga majlis bo‘lganda bu ilovalarni sababini aytib, bir-bir rad qilib, noroziligingizni bildirursiz, man ham yordam qilurman, – dedi.

Taom yegandan so‘ng majlis vaqti bo‘lib, yo‘lga chiqdik. Aleksandr Samoylovich dedikim:

– Bul kecha havo juda ochiq, yulduzlar yaxshi erkan.


Javobida dedimkim:

– Yulduzlarning yaxshi yomon erkanlarini yana to‘rt soatdan keyin, Karaxanning yonidan chiqqandin so‘ng bilurman, – dedim”.

Ha, 1920-yilda Kremlida Boboovun va Samoylovich bilan bog‘liq shunday voqealar ham ro‘y bergandi. Oradan bir yil o‘tib, 1921-yil 6-martda Xivada davlat to‘ntarishi bo‘lib, XXR tepasidagi “Yosh xivaliklar”, xususan, Polyozhoji Yusupov, Boboovun Salimovlar hokimiyatdan chetlashtiriladi. Ana shu voqealardan bir oz o‘tib, Moskvadan Kobozev, Samoylovich singari tashqi ishlar komissarligi xodimlari Xivaga kelishadi. Tabiiyki, Samoylovich xonlik davridayam Xorazmda bo‘lgan, voha hayotini, o‘zbek tilini yaxshi bilar, tanishlariyam ko‘p edi.

Polyozhoji Yusupovning “Xotiralari”da yozilishicha, Samoylovich Xivadalik paytida uni topib uchrashgan, to‘ntarishning fojiasi, uning oqibatlari to‘g‘risida muloqot qilishgan. Shuningdek, Boboovun Gurlanga ketib o‘z qishlog‘ida yashayotganidan o‘kingan, uning XXR rahbariyatida ishlashi lozimligi, uni Xivaga chaqirish kerakligini ta’kidlagan.

Shu tariqa oradan vaqt o‘tib Boboovun yana Xivaga kelib adliya nozirining o‘rinbosari, Afg‘onistondagi konsul va boshqa vazifalarda to 1924-yilgacha faoliyat ko‘rsatadi.



Ana shunday ekan, Validiy qanday fikr bildirishidan, Samoylovichning qaysi siyosatni qo‘llashidan qa’tiy nazar, Aleksandr Nikolayevich Samoylovich (1880-1938) yetuk sharqshunos olim edi. U Rossiyadagi Rozen (1849-1892), Aristov (1834-1882), N.I.Karayev (1850-1931), A.M.Pozdneyev (1851-1920), A.Y.Krimskiy (1871-1941), V.V.Bartold (1869-1930), V.A.Bogorodiski (1857-1941), M.M.Xvostov (1872-1920), K.V.Xarlamovich (1870-1932), G.N.Potanin (1835-1920) singari Osiyo xalqlari tarixini tadqiq qilgan yetuk allomalarning izdoshi sifatida tarixda qoldi va qolajak.

**FILOLOGIYA****“DAVLAT TILIDA ISH YURITISH” FANINI O‘QITISHDA  
QO‘LLANILADIGAN KEYS VA TEXNOLOGIYALARNING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****UDK 624.012****Guli  
XUSAINOVA**

**Urganch davlat  
universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim  
metodikasi kafedrası  
o‘qituvchisi.**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada “Davlat tilida ish yuritish” fanini o‘qitishdan maqsad va talabalarni ish yuritish hujjatlari bilan tanishtirishda qo‘llaniladigan keys va texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

**Аннотация:** в статье анализируются цели преподавания предмета «Делопроизводство на государственном языке» и особенности кейсов и технологий, используемых при ознакомлении студентов с деловыми документами.

**Annotation:** this article analyzes the goals of teaching the subject “Documentation in the state language” and the features of cases and technologies used to familiarize students with business documents.

**Kalit so‘zlar:** davlat tili, til, hujjat, ish yuritish, keys, metod.

**Ключевые слова:** государственный язык, язык, документ, делопроизводство, кейс, метод.

**Key words:** state language, language, document, office work, case, method.

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri. Til mavjud ekan, millat mangu yashaydi; tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. Demakki, o‘zbek tilining tirikligi – o‘zbek millatining mavjudligi, davlat tili esa o‘zbek davlatchiligining borligidan dalolatdir.

O‘zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, Boburning “Boburnoma” asarlarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va XX asrdagi adiblarimiz ijodida jilolanib turibdi.



Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-



texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

Davlat tili davlatning o‘z fuqarolari bilan gaplashadigan rasmiy tilidir. Davlat tilida qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar tayyorlanadi. Davlatning butun faoliyatida ish yuritish davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiy e’lonlar, muhrlar, shtamplar, har xil ish qog‘ozlari, ko‘chalarning nomlari davlat tilida tayyorlanadi. Shuningdek, maktab va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim davlat tilida olib boriladi. Televideniye, radio, gazeta va jurnallarda davlat tilidan foydalaniladi.

Demak, davlat tili mustaqil davlatning muhim belgisidir. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinib va e’lon qilinmoqda. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinyapti. Bu xizmatlarni mukammal amalga oshirishda o‘z navbatida kitob va undan olinadigan ilmning o‘rni beqiyosdir.

Kitob bilim olamiga ko‘prik sanaladi. Qadim zamonlardan kitob insonni tarbiyalabgina qolmasdan, uni komillik, zukkolik sari va teran fikr yuritishga yetaklaydi.

Filologiya fanlar doktori, professor N.Mahmudov rahbarligi va tahriri ostida 2020-yilda nashr qilingan “Davlat tilida ish yuritish” amaliy qo‘llanmasi mamlakatimizning barcha korxonalar, tashkilot va muassasalarida bo‘lgani kabi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Xorazm viloyati hududiy bo‘linmasida ham zo‘r ishtiyoq bilan kutib olindi va bugungi kungacha yaqona va bebaho manba sifatida o‘quv jarayonida qo‘llanib kelinmoqda. Shu o‘rinda aytish joizki, markaz tomonidan ushbu qo‘llanma asosida ishlab chiqilgan ish daftari nafaqat markaz tinglovchilari uchun, balki oliygoh talabalariga ham xat va hujjatlashtirish ishlarini mukammal izohlashda qimmatli yordamchi bo‘lmoqda.

“Davlat tilida ish yuritish” nomli mazkur qo‘llanma va ish daftarida ish yuritish faoliyatida eng ko‘p foydalaniladigan hujjatlar, ularni tuzish tartib-qoidalari tegishli namunalar bilan berilganligi, o‘z navbatida, kitobdan ish yuritishga oid lug‘atning ham o‘rin olganligi har bir kitobxonada, jumladan, markaz mutaxassislari va tinglovchilarida o‘quv va tajriba jarayonlarida hujjatlarni talab darajasida tayyorlashga judayam qulayligini e‘tirof etib o‘tish lozim.

Oliy ta‘limda “Davlat tilida ish yuritish” fanini o‘qitishdan maqsad talabalarni nutqning uslubiy shakllari, matn turlari va tarkibi, davlat tilida ish yuritish asoslari bilan yaqindan tanishtirish, rasmiy hujjatlar haqida bilim berish uchun xizmat qiladi.

“Davlat tilida ish yuritish” fanini o‘qitishda ham o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Jumladan, amaliy mashg‘ulotlarda o‘qituvchining kreativ yondasha bilishi, zamonaviy keys va texnologiyalar va metodlardan unumli foydalana bilishi dars sifati va mazmunini oshiradi. Quyida ushbu fanni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan keys va misollarni keltiramiz:

**1-topshiriq. Ushbu vaziyat yuzasidan berilgan qolip asosida tilxat matnini tuzing.**

Fuqaro Salimov Javohir Nig‘matullayevich qo‘shnisi fuqaro Komilov Husayn Jabborovichdan 1 000 000 (bir million) so‘m miqdorida qarz olgan. Fuqaro Salimov Javohir Nig‘matullayevich ushbu qarzni 2017-yil 21-sentabr kuni olgan va 2019-yil 5-dekabrda berishga kelishilgan edi.

**TILXAT**

Men, \_\_\_\_\_ qo‘shnim  
\_\_\_\_\_ dan \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ so‘m  
qarz oldim. Men olgan qarzimni \_\_\_\_\_ da qaytarib beraman.

**2-topshiriq. Tilxat matnida xatoliklar bormi?****TILXAT**

Men, Po‘lat Saidovich Toxirov, Toshkent savdo markazi xo‘jalik mollari bo‘limining mudiri, fuqaro Rahim Karimovich Rahimovdan narxi 24 mln. so‘mlik “Sharp” markali xolodilnikni boshqa xolodilnikka almashtirib berishga qabul qilib oldim.

Toxirov Po‘lat Saidovich, 21.06.2018.

*namuna*

**TILXAT**

Men, Boysun tumanidagi “Fayz Ramz” fermer xo‘jaligi boshlig‘i Karim Salimovich Rahimov, fermer xo‘jaligi kassiri Dilbar Salimovadan xo‘jalik a‘zolarining iyun oyiga tegishli 7 164 500 (yetti millon bir yuz oltmish to‘rt ming besh yuz) so‘m miqdoridagi ish haqini tarqatish uchun oldim.

2019.16.09. (imzo) K.S.Rahimov

**3-topshiriq. Quyidagi hujjat matnida yo‘l qo‘yilgan imloviy, ishoraviy hamda uslubiy xatolarni toping.****Tafsiya noma**

Man Topilova Naziraning 1992-yildan buyon taniyman. 1994 yildan boshlab bugungi kungacha birga juda yaxshi ishlab kelmoqdamiz. Shu davr ichida Topilova Nazira doktorlik sohasida yetuk mutaxassis sifatida tanildi, oliy toyifali shifokor bo‘ldi.

N.Topilova nafaqat doktorlik sohasida, balkim oilaviy-ahloqiy jixatdan va ijtimoiy faoliyat sohasida ham na‘munali insondir. U o‘ziga topshirlgan ishni halollik bilan va maromiga yetkazib bajaradi. Intizomliligi, madaniyatliligi bilan ham kasblari orasida obro‘ qozongan. Nazira oilada ushta bolaning onasi va mexribon rafiqadir. N.Topilova ishtimoiy hayotida ham faol ishtirog etib kelmoqda.

N.Topilovaning yuqoridagi sngari faziylatlari uning har qanday ma’sul ishni bajara olishiga ishonch bildirishga asos bo‘ladi. Shuni uchun man N.Topilovani bo‘lim mudiri lavozimida ishlashga tafsiya etaman.

**Bosh shifokor muovini**

**Sanobar Rahimova**

*Izoh: Ish qog‘ozlarida emotsional baho beruvchi so‘zlar, so‘zlashuvga xos so‘zlar, shevaga xos so‘zlar ishlatilmaydi. Hujjatlar o‘zbek adabiy tili me‘yoriga*

*muvofiq tarzda yozilishi shart. Lekin ish qog‘ozlarining ayrim turlarida (masalan, tabriknoma) emotsional-ekspressivlik ifodalovchi so‘zlar ishlatiladi.*

*Aslida qonun tili bilan rasmiy-idoraviy uslub bir narsa emas.*

*Qonun tilida birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari (men, sen, biz, siz) deyarli qo‘llanmasa, ish qog‘ozlarida men, siz olmoshlari ko‘p ishlatiladi.*

**4-topshiriq. Berilgan gaplardagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang. “T” yoki “N” belgilarini qo‘ying.**

- ✓ Xizmat guvohnomalari 5 yil saqlanadi.
- ✓ Shaxsga malaka berilganligi haqidagi guvohnoma va boshqa guvohnomalarda uning muddati ko‘rsatiladi.
- ✓ Xizmat guvohnomasi 3 yildan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladi.
- ✓ Yaroqsiz holga kelgan xizmat guvohnomalari haqiqiy deb topiladi.
- ✓ Zaruriy qismining 1-raqamida tasdiqlovchi so‘z “tasdiqlayman” so‘zi keladi.
- ✓ Yo‘riqnomada sarlavha bilan hujjat nomi ajratilgan holda keladi.
- ✓ Yo‘riqnomada matn 2-shaxs nomidan bayon qilinadi.
- ✓ Lavozim yo‘riqnomasini xodimning bevosita rahbari ishlab chiqadi.
- ✓ Sarlavha yo‘riqnoma talablari qaratilgan masala, mavzu yoki shaxslarni aniq chegaralab ifodalashi kerak.
- ✓ Xizmat guvohnomalari rahbar imzolashi uchun barcha tomonidan taqdim etilishi mumkin.

**5-topshiriq. Quyidagi ma’lumotlar qaysi farmoyish hujjatlariga mansub ekanini toping.**

1 – buyruq; 2 – ko‘rsatma; 3 – farmoyish.

- Muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llanadi.
- Idoralarda axborot-metodik tisdagi masalalar, shuningdek, buyruqlar, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog‘liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat.
- Ularda, odatda, yuqori tashkilotlardan kelgan ko‘rsatma hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, ularning ijrosi yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilanadi, mas’ul shaxslar va bajarish muddati tayinlanadi.
- Uning vositasida rahbar tashkilotning ishlab chiqarish, rejalashtirish, hisobot, moliyalashtirish, kredit ajratish, mahsulotni sotish faoliyati, tashqi

iqtisodiy faoliyati, tashkilot tuzulmasini takomillashtirish va ishlarni tashkil etish va boshqa masalalar bo'yicha amaliy ish yuritadi.

Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligani keskin pasaytiradi.

Shularni inobatga olgan holda, "Davlat tilida ish yuritish" fanini o'qitishda va mashg'ulotlarda mavzuga doir ta'lim texnologiyalari va metodlardan foydalanishda ham o'qituvchining kreativ mahorati va tajribasi talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida dars samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2020.
2. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. -T., "Sharq", 2004.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1992.
4. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. -T.: "O'qituvchi", 1992.
5. Ish daftari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi kursi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma. -T., 2021.

## IQTISODIYOT

### TIJORAT BANKLARINING KREDITGA LAYOQATLILIK DARAJASINI OSHIRISH

UDK 75.80



**Quvanchbek  
JUMANIYAZOV**

“O‘zmilliybank” AJ  
Shovot BXM bosh  
hisobchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada tijorat banklarining kreditga layoqatlilik darajasining imkoniyatlari, zaruriyati va uni oshirish masalalari tadqiq qilingan.

**Аннотация:** в статье рассматриваются возможности, необходимость и вопросы повышения кредитоспособности коммерческих банков.

**Annotation:** this article examines the possibilities, necessity and issues of increasing creditworthiness of commercial banks.

**Kalit so‘zlar:** bank, tijorat banki, kredit, kreditga layoqatlilik, kreditga layoqatlilik darajasi.

**Ключевые слова:** банк, коммерческий банк, кредит, кредитоспособность, уровень кредитоспособности.

**Key words:** bank, commercial bank, loan, creditworthiness, creditworthiness level.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida banklar muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko‘rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilmoqda. Ularning turlari kengaytirilmoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik darajasi oshib bormoqda. Bu borada tijorat banklari kredit operatsiyalari va bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat bo‘lganligi sababli ularning kreditga layoqatlilik darajasini oshirish asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Banklar mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o‘rinni egallab, uning kredit berish funksiyasi bank va mijoz o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada jismoniy shaxslarga kredit berishda bankning kredit riskini kamaytirishning asosiy usuli qarz oluvchining kredit qobiliyatini baholashdan iborat bo‘lib, u kreditni to‘lash ehtimolini baholashni o‘z ichiga oladi. Bu esa kredit arizasi bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilish yoki kredit berishni rad etish sifatida bank tomonidan belgilangan tartibda potensial mijozning to‘lov qobiliyatini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi [1].

Tijorat banklari uchun kreditga layoqatlilik ularning kredit berishidagi mavjud imkoniyatlari bilan namoyon bo‘ladi. Kreditga layoqatlilik – qarz oluvchining kredit olish va uni o‘z vaqtida to‘lash uchun zarur shart-sharoitlari va

imkoniyatlarining mavjudligidir. Biroq kreditga layoqatliligini baholash uchun qarz beruvchiga qarz oluvchi to'g'risida yetarli ma'lumot bazasi zarur bo'ladi. Asosiy axborot manbalariga mol-mulk va majburiyatlarning qiymati, moddiy va moliyaviy resurslar harakati, olingan foyda miqdori va boshqalarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi hisoboti kiradi. Bu kredit arizasi bo'yicha ijobiy qaror qabul qilish yoki kredit berishni rad etish sifatida qaraladi [3].



Tijorat banklarining kreditga layoqatlilik darajasini oshirish uchun kredit mazmuni va shartiga asoslanib, qarzni to'lamagan, ammo qarz yuki juda yuqori bo'lgan qarz oluvchilar rad etilishi mumkin. Bunday holatda, qayta moliyalashdan foydalanish kerak. Ya'ni, barcha kreditlarni bittaga birlashtirib, foiz stavkasi va oylik to'lov miqdori kamaytiriladi. Qayta moliyalashtirish bo'yicha arizalarni ko'rib chiqishda banklar ishonchlilikka tekshiradi. Ammo qarz yukiga deyarli e'tibor berilmaydi. Zero, qayta moliyalashtirish shu yukni kamaytirish bilan izohlanadi.

Tijorat banklarining kreditga layoqatlilik darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan tahlillar va o'rganishlar shundan dalolat beradiki, banklar faoliyatida investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni baholashda qarz oluvchi korxonaning kreditga layoqatliligini tahlil qilish va baholash muhim rol o'ynaydi. Bunda qarz oluvchining kreditga qobilligini sifat va miqdor ko'rsatkichlari asosidagi tahlili asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir [3].

Shuningdek, daromad va mulkiy maqomga nisbatan qat'iy talablarga qaramay, kreditga layoqatlilikni tadqiq qilishda muddati o'tgan kredit

qarzlarning o'sish tendensiyasi mavjud bo'ladi. Bu borada tijorat banklari qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlashni takomillashtirishlari va qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tasdiqlash usulini ishlab chiqishlari kerak. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini baholash uchun banklar qarz oluvchining bandligi va daromadlari, shuningdek, uning xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni birlashtirishi kerak. Shundan keyin, u kreditni to'lay olishi bo'yicha ishonchli xulosalarga kelishi kerak.

Shu bilan birga, garovga qo'yilgan mol-mulk kredit berish uchun yetarli garovga egami yoki yo'qligini ko'rsatadigan xulosa tayyorlanishi kerak. Aslida, kreditga layoqatlilik bu kreditga qanchalik loyiq ekanligini baholash bilan belgilanadi. Agar qarz beruvchi qarz oluvchi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishiga ishonchi komil bo'lsa, qarz oluvchi kreditga layoqatli, deb qaraladi. Agar qarz oluvchi o'zining kreditga layoqatliligini mustaqil baholasa, bu manfaatlar to'qnashuviga olib keladi. Shu bois, murakkab moliyaviy vositachilar tegishli xavf va to'lov ehtimolini aniqlash uchun jismoniy shaxslar va korporatsiyalarga baho beradilar.

Tijorat banklarida jismoniy shaxslarning layoqatliligini baholashga ham e'tibor beriladi. Jismoniy shaxsning kreditga layoqatliligi oddiy shaxsning ma'lum miqdorda qarz olish va oylik to'lovlarni amalga oshirish qobiliyatini tasdiqlovchi yetarli ijobiy omillar to'plamiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Bu borada kreditni to'lash qobiliyatiga asoslanadi. Tijorat banklari arizani tasdiqlashdan oldin, ushbu qobiliyatni o'rganib chiqishlari va kredit xavfini hisoblashlari lozim. Bu borada mutaxassislar xavf darajasini tashkil etuvchi ko'rsatkichlarni o'rganadilar. Bular reyting modellari sifatida algoritm bo'lib, u orqali qarz oluvchi yoshi, ish tajribasi, o'rtacha oylik daromadi, oilaviy ahvoli, qaramog'idagilar soni, aktivlari, majburiyatlari va boshqalar kabi moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin.

Tijorat banklarida qarz oluvchining kredit tarixi ham diqqat bilan o'rganiladi. U qanchalik muvaffaqiyatli bo'lsa, kredit qobiliyatining ijobiy darajasini rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunda kreditni baholash katta hajmdagi ma'lumotlar va hujjatlarni tahlil qilish kabilardan iborat bo'ladi. Hozirgi vaqtda har bir qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar umumiy bank ma'lumotlar bazalarida joylashgan bo'lsa, ilgari qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tekshirish ko'p hujjatlar va uzoq vaqtni talab qiladi.

Darhaqiqat, kreditga layoqatlilik turli mezonlar kredit tarixi, daromad-xarajat nisbati, joriy ish joyidagi ish staji, daromad manbai turi va boshqa omillarni jamlagan holda maxsus formula yordamida baholanadi. Har bir mijoz



alohida baholanadi. Shunga asoslanib, tijorat banklarida kreditga layoqatlilik



darajasini va unga berilgan foiz stavkasi va kredit miqdorini aniqlaydi.

Xulosa shuki, kreditga layoqatlilik faqat qarz oluvchi korxonaning bank oldidagi kredit qarzini va u bo'yicha foizlarni to'lash qobiliyati bilan belgilanadi. Yuqoridagi barcha so'rovlar qarz oluvchining roziligi bilan shartnoma asosida, real vaqt rejimida, imkon qadar tezroq amalga oshirilishi kerak. Qaror qabul qilish bloki to'g'ridan to'g'ri qarz oluvchining kredit qobiliyati, unga kredit berish imkoniyati va maksimal ruxsat etilgan kredit miqdori belgilanadi. Natijada, qarz oluvchining moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar bilan ifodalangan, kelajakda uning kreditni to'liq va o'z vaqtida to'lash qobiliyatini baholashga imkon beradigan har tomonlama huquqiy va moliyaviy tavsifi inobatga olinadi. Shu bilan tijorat banklarida kredit berish imkoniyatlari kengayadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Грачева Е. Банковское право Российской Федерации: учебник /Е.Ю.Грачева. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Норма: ИНФРА-М, 2021. - 336 с.
2. Финансово-экономический словарь. // Под общ. ред. А.Г.Грязковой. - М.: Финансы и статистика, 2002.
3. Shaislamova N.K. Korxonaning kreditga layoqatliligini baholash - risk darajasini pasaytirish vositasi sifatida. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 2023, №1(3). ISSN: 2181-1342 (Online). – 12-b. <https://scienceproblems.uz>.

**IQTISODIYOT****YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS  
XUSUSUYATLARI****So'najon  
YO'LDOSHEVA****IT-Park Xonqa bo'limi  
xodimi, magistr****UDK 86.10**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning zarurligi, mavjud imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** в статье выделены необходимость развития зеленой экономики, имеющиеся возможности и ее особенности.

**Annotation:** in this article, the need for the development of the green economy, the available opportunities and its specific features are highlighted.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, atrof-muhit, konsepsiya.

**Ключевые слова:** экономика, зеленая экономика, устойчивое развитие, окружающая среда, концепция.

**Key words:** economy, green economy, sustainable development, environment, concept.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining paydo bo‘lishi jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichini tavsiflovchi ko‘pgina hodisalar bilan bog‘liq. Xususan, integratsiya va globallashuv jarayonlari sodir bo‘lmoqda. Innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarni belgilab, raqobatbardoshlikning asosiy omillari bo‘lib hisoblanadi. Bu esa jahon iqtisodiyotining yuksalishi va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq texnologik innovatsiyalar natijalari barcha mamlakatlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi tabiiy kapitalga bo‘lgan talabni oshiradi va atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va tabiiy resurslarning tugashiga olib keladi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, atrof-muhitni muhofaza qilish va undan samarali foydalanish orqali kishilarning hayot sifatini yaxshilash bevosita yashil iqtisodiyot ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishga imkon berdi. Bunda asosiy e‘tibor ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash e‘tiborga olindi.

“Yashil iqtisodiyot” atamasi birinchi marta Buyuk Britaniyada 1989-yilda iqtisodiy va barqaror rivojlanishni uyg‘unlashtirishga qaratilgan yashil iqtisodiyot loyihasi tomonidan ishlatilgan. Ekologik tahdidlarning o‘sishi va jahon moliyaviy inqirozining rivojlanishi mavjud iqtisodiy modelning muammoli va beqaror

xarakterini ko'rsatdi va iqtisodiy tizimga ekologik xavfsizlik unsurlarini kiritish zarurligini tasdiqladi. Ushbu iqtisodiyot global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiyot hamda ekologik toza texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va sotish bo'yicha alohida faoliyat sohasi sifatida qaraladi. Yashil iqtisodiyotni inson farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi, shu bilan birga atrof-muhitning buzilishi va qashshoqlik xavfini kamaytiradigan iqtisodiyot sifatida belgilanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta'kidlashicha, yashil o'sish aholi farovonligini belgilaydigan tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlarining manbai sifatida tabiiy resurslarni saqlab qolish bilan birga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini shakllantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-sonli qarori [1] ham qabul qilingan.



Shunday qilib, kelishuv issiqxona gazlari chiqindilarini oshirmasdan dinamik rivojlanish uchun shart-sharoit yaratadi va davlatlar texnologik qurollar, past va uglerodsiz texnologiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ikkilamchi resurslardan foydalanish kabi masalalarni mustaqil ravishda belgilaydi. Resurslardan tejamkor va samarali foydalanish atrof-muhitni muhofaza qilish va asrash tamoyillariga asoslanadi [2]. Unda innovatsiyalar, investitsiyalar va modernizatsiya resurslarning intensivligini kamaytirish, biosferaga ta'sirni kamaytirish va inson hayoti uchun barqaror sharoitlar yaratish orqali tabiiy kapitaldan atrof-muhit, iqtisodiyot va jamiyat uchun foydalanishda yutuqlarga erishishga imkon beradi. Yashil iqtisodiyotning turli talqinlari uchun umumiy bo'lgan jihat uning ijtimoiyligidir [3]. Shuningdek, 2012-yilda BMT ekologik dasturini amalga oshirish doirasida qator tamoyillar taklif etilgan [4].

“Yashil iqtisodiyot” asosini texnologik innovatsiyalar va samarali davlat iqtisodiy siyosati tashkil etadi. Yashil innovatsiyalar energetika va transport, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, sanoat va qurilish, suv va chiqindilarni boshqarish kabi keng sohalarni qamrab oladi. Iqtisodiy siyosatning kompleks chora-tadbirlari ma‘muriy, iqtisodiy va tartibga solish kabi usullarni o‘z ichiga oladi. Ma‘muriy usullar me‘yoriy-huquqiy baza shartlariga rioya qilishni ta‘minlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, qoidalar va ko‘rsatmalar, resurslardan foydalanish cheklovlari, atrof-muhitning ifloslanishi uchun me‘yoriy qiymatlar shular jumlasidandir.

Iqtisodiy usullardan foydalangan holda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishni rag‘batlantirish soliq yukini daromadlardan resurslardan noratsional foydalanishga o‘tkazishga asoslangan samarali soliqqa tortish tizimi va tashqi ta‘sirlarni hisobga olish tizimini ta‘minlaydi. Bularga innovatsion va ekologik istiqbolli loyihalar uchun subsidiyalardan foydalanishni nazarda tutuvchi narx belgilash mexanizmi, ekologik toza mahsulotlarni davlat xaridi va ekologik toza innovatsiyalarni joriy etish uchun davlat investitsiyalaridan foydalanish, savdo ruxsatnomalari va ekologik jihatdan samarali loyihalar uchun kredit imtiyozlari kiradi. Hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy usullarga iqtisodiy tabiiy resurslardan ekologik yo‘naltirilgan foydalanish bo‘yicha qonun hujjatlari va ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni taqsimlashning me‘yoriy-huquqiy asoslari kiradi.

Xalqaro amaliyotda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini amalga oshirishda axborotni ta‘minlash, hamkorlik qilish va tajriba almashish usullariga e‘tibor qaratilmoqda. Bular tarkibi axborot markazlari faoliyati, ekologik va iqtisodiy monitoring, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, jumladan, barqaror rivojlanish sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va bilim almashish, atrof-muhitni boshqarish va audit sxemalarini tarqatish, ta‘lim dasturlariga qo‘shma davlat investitsiyalari, biznes orqali xodimlarning ekologik-iqtisodiy va ekologik-huquqiy kompetensiyasini oshirish, kompaniya boshqaruvining barcha darajalari, ekologik va iqtisodiy ma‘lumotlar bazalarini xalqaro almashish kabilardan iborat bo‘ladi.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyotni ishlab chiqarish, ijtimoiy va tabiiy tizimlarning izchil va samarali ishlashiga asoslangan, resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan, atrof-muhitga yukni kamaytirishni nazarda tutuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida tavsiflash mumkin. Innovatsion texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklikning ekologik va iqtisodiy majburiyatlarini qo‘llash orqali ijtimoiy inklyuzivlik va turmush sifatini yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ekologik toza iste‘mol

tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashda qo'llaniladi.

Xulosa shuki, yashil iqtisodiyot faqat rivojlangan ilmiy-texnika bazasi, muayyan mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi, bozordagi kamchiliklarni tuzatish va atrof-muhitga yo'naltirilgan iqtisodiyotni o'rnatish imkonini beruvchi davlatning tegishli tartibga solish aralashuvi asosida rivojlanishi mumkin. Bu orqali iqtisodiy dinamika holati, atrof-muhitdagi dunyo bilan organik birlikda inson mavjudligi falsafasini ijtimoiy tushunish tadqiq qilinadi. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimlarini postindustrial jamiyat qurish yo'lidan borayotgan rivojlangan davlatlar to'liq yaratishi mumkin. Nazariy postindustrializm jamiyatning resurslarni tejoychi va ekologik jihatdan yo'naltirilgan. Shu munosabat bilan yashil iqtisodiyotni shakllanishini postindustrial jamiyat rivojlanishining tabiiy bosqichi deb hisoblash mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori. Manba: <https://lex.uz/en/docs/-6303230>

2. Хангулыева О. Концепция зеленой экономики. // Международный научный журнал "Символ науки", 11-1-1, 2023. – с. 117.

3. Зомонова Э.М. Понятие и принципы "зеленой" экономики. // АНИ: экономика и управление. 2016. Т. 5. № 1(14). - с. 16.

4. <https://journal.sovcombank.ru/esg/что-такое-зеленая-экономика>

**IQTISODIYOT****SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY  
SHERIKLIGINI TASHKIL ETISHNING MINTAQAVIY  
XUSUSIYATLARI****UDK 86.10****Jumanazar  
QURBANOV****O‘zbekiston  
Respublikasi Bank-  
moliya akademiyasi  
“Loyiha boshqaruvi”  
magistranti**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikligini tashkil etishning zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va mintaqaviy xususiyatlari yoritilgan.

**Аннотация:** в статье освещены необходимость, имеющиеся возможности и региональные особенности государственно-частного партнерства в сфере здравоохранения.

**Annotation:** this article highlights the necessity, available opportunities and regional features of public-private partnership in the health sector.

**Kalit so‘zlar:** sog‘liqni saqlash, loyiha, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, hamkorlik, budget.

**Ключевые слова:** здравоохранение, проект, проекты государственно-частного партнерства, сотрудничество, бюджет.

**Key words:** health care, project, public-private partnership projects, cooperation, budget.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimiz mintaqalarida sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilishga muhim e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu sohani isloh qilishning zamonaviy yo‘nalishi sifatida davlat-xususiy sherikligini tashkil etish hisoblanadi. Ushbu yangi soha bo‘yicha mamlakatimiz qonunlarida alohida ta‘riflar berilgan: Davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligidir [1]. Ushbu kategoriyaning asosini ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini amalga oshirish tashkil etadi. Hozirgi kunda davlat-xususiy sheriklik konsepsiyasi o‘zaro manfaatli shartlar asosida ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish uchun davlat va biznesning o‘rta va uzoq muddatli o‘zaro hamkorligi shakllari to‘plamini o‘z ichiga oladi [2].

Davlat-xususiy sheriklikning keng taraqqiy qilish xususiyatlarini xorijiy mamlakatlarda to‘plangan tajribalar yo‘nalishlari tashkil etadi. Bu borada o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik shartnoma modeli doirasida talqin qilinadi. Bu bir qator sabablarga

ko‘ra, qo‘shma yuridik shaxs tashkil etilganda davlat ishtiroki mavjud bo‘lsa, yuqori iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatilmaydi. Ya‘ni, rasmiy ravishda korxonaning ustav kapitalida davlat ishtiroki davlat-xususiy loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishda obyektiv afzalliklarni ta‘minlamaydi [3]. Ushbu to‘plangan tajribalarga asosan Xorazm viloyati mintaqasi sog‘liqni saqlash tizimida ham davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining amalga oshirilishi rejalashtirildi.

Darhaqiqat, mintaqada sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish orqali ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari va sifatini oshirish maqsadida davlat va xususiy sheriklik loyihalarini, shuningdek, xususiy resurslarni jalb qilish va risklarni taqsimlash orqali erishiladigan davlat va xususiy sheriklar o‘rtasidagi uzoq muddatli o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta‘minlashga qaratilgan. Mazkur sohada sheriklikni amalga oshirish usuli sifatida turli loyihalar ishlab chiqiladi. Ushbu loyihaning majmusini iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan xususiy investitsiyalarni jalb etish va ilg‘or boshqaruv tajribasini joriy etish chora-tadbirlari majmui tashkil etadi. Mintaqada davlat va xususiy sog‘liqni saqlash sektori o‘zaro hamkorligining asosiy mexanizmlari shakllantirilgan bo‘lib, ular qatoriga konsessiya shartnomalari, investitsiya shartnomalari, ijara shartnomalari, autsorsing va h.k. kabilar kiradi.

Bugungi kunda Xorazm viloyati mintaqasi sog‘liqni saqlash tizimida ushbu davlat-xususiy sheriklikka asoslangan chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu borada bitim shaklidagi loyihalar amalga oshirilmoqda (1-jadval).

*1-jadval*

**Xorazm viloyati mintaqasi sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari to‘g‘risida ma‘lumot [4]**

T/r	Davlat-xususiy sheriklik obyekti	Tadbirkorlik subyekti nomi (xususiy sherik)	Jami investitsiya miqdori	Loyiha nomi	Loyiha doirasida yaratiladigan ish o‘rinlari soni
1.	Urganch tumani tibbiyot birlashmasi hududidan ajratilgan yer maydoni	“JO‘SHQINBEK SHIFO” MCHJ	2,5 mlrd. so‘m	Tibbiyot markazi	12 ta

2.	Urganch tumani va Bog‘ot tumani tibbiyot birlashmalari hududidan ajratilgan yer maydonlari	Nephrocare Health Services Pvt. Ltd. (Hindiston)	9,85 mln. AQSH dollari	Gemodializ xizmatini tashkil etish	Har bir markazda 30 tadan, jami 60 ta
3.	Yangiariq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli eski xo‘jalik binosi	“YANGIARIQ SAMIRA SOFIYA FARM” MCHJ	5,4 mlrd. so‘m	Tibbiy diagnostika markazi	25 ta
4.	Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali hududidagi bo‘sh yer maydoni	“TRUST COOPERATION POWER” MCHJ	8,3 mlrd. so‘m	Reabili-tatsiya va telemeditsina markazi	38 ta
5.	Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Xorazm filiali	Xalqaro moliya korporatsiyasi ko‘magida Farg‘ona, Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlarida nurli terapiya markazlarini tashkil etish. Bugungi kunda mazkur loyiha bo‘yicha yakuniy tender savdolari o‘tkazilib, xususiy sherik bilan bitim imzolanishi kutilmoqda. Loyiha doirasida yiliga 90 ming nurli terapiya muolajasi xizmatlarini bemorlarga ko‘rsatish belgilangan va har bir tibbiyot markazlari kamida ikkita LINACS (chiziqli o‘tkazgich) moslamalari bilan jihozlanishi belgilangan. Loyiha qiymati 6,7 mln. AQSH dollariga teng.			
6.	Xorazm viloyati “Ona va bola” skrining markazining bo‘sh turgan binosi	“NUR-ZIYO PROFMED” MCHJ	5,3 mlrd. so‘m	Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi	26 ta
7.	Yangibozor tuman tibbiyot birlashmasi hududidagi bo‘sh yer maydoni	“Omad va vijdon” oilaviy korxonasi	11,3 mlrd. so‘m	Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi	35 ta

Ushbu jadvalga asosan, jami 7 ta loyihani amalga oshirish belgilangan va barcha loyihalarning davlat sherigi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hisoblanadi. Har bir loyihani amalga oshirish uchun quriladigan obyektlar tanlab olingan. Hamda mazkur loyihalar hozirgi holatiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, yuqoridagi jadvalda keltirilgan 1-loyiha bo‘yicha qurilish-montaj ishlari tugatilib va tibbiy asbob-uskunalar to‘liq jihozlanib, markaz 2022-yilda ish faoliyatini boshladi, 2-loyiha bo‘yicha Bog‘ot va Urganch tumani



gemodializ markazlarida qurilish-montaj ishlari tugatilib va barcha zarur tibbiy jihozlar o'rnatilib, 2022-yilda markaz ish faoliyati yo'lga qo'ydi, 3-loyiha bo'yicha bitim imzolanib, xususiy sherik tomonidan qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda, 4-loyiha bo'yicha ham bitim imzolanib, xususiy sherik tomonidan loyiha hujjatlari tayyorlanib, qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda, 6-7-loyihalar bo'yicha esa tayyorlangan xat bo'yicha loyiha hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligi ro'yxatiga qayta kiritildi.

Xulosa shuki, viloyat sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikligini loyiha shaklida tashkil etish orqali infratuzilma obyektlarini ishga tushirish jarayonlarini yanada jadallashtirishga, ular bo'yicha byudjet xarajatlarini samarali sarflanishini ta'minlashga va ko'proq iste'molchilarga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlashga erishiladi. Natijada, qurilish, tijorat, moliyaviy risklar va aholiga xizmatlar ko'rsatish funksiyalarining bir qismini xususiy sherikga o'tkazish ishlari davlatning o'ziga qaraganda ancha samaraliroq bajaradi. Davlat ham, tadbirkor ham foyda olishlari ta'minlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-sonli qonuni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>
2. Теория и практика государственно-частного партнерства. Учебный модуль. Авторы: Юсупов Н.А., Карабаев Ф.Э. - Т., 2013. - с. 6.
3. Дабагян Е.К. Роль частного сектора в реформировании системы здравоохранения: мировой опыт и российская практика. / Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2019. - с. 68-69.
4. Xorazm viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari

**PEDAGOGIKA****BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO PIRLS TADOIOTI TOPSHIRIOLARI****UO'K: 360.4****Nuriya  
MATYAKUBOVA****UrDU o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** PIRLS xalqaro tadqiqotining qamrov doirasida keltirib o'tilganidek, ushbu tadqiqotda to'rtinchi sinf o'quvchilarining turli xil matnlarni o'qish va o'qigan matnlarining ma'nosini tushunish qobiliyatini baholash imkonini beradi. O'zbekistonda PIRLS tadqiqotini o'tkazishning qog'oz shakli tanlangan. Raqamli PIRLS simulyatsiya qilingan internet muhitida ma'lumotni onlayn o'qishni baholaydigan elektron PIRLS (ePIRLS) ni o'z ichiga oladi.

**Аннотация:** как указано в международном исследовании PIRLS, в этом исследовании оценивается способность четвероклассников читать различные тексты и понимать смысл прочитанных ими текстов. В Узбекистане была выбрана бумажная форма исследования PIRLS. Цифровые PIRLS включают в себя электронные PIRLS (ePIRLS), которые оценивают онлайн-чтение информации информации в моделируемой Интернет-среде.

**Annotation:** as stated in the PIRLS international research scope, this study assesses the ability of fourth graders to read a variety of texts and understand the meaning of the texts they read. A paper from of PIRLS research was chosen in Uzbekistan. Digital PIRLS includes electronic PIRLS (ePIRLS), which assesses online reading of information in a simulated Internet environment.

**Kalit so'zlar:** xalqaro baholash, kognitiv va megakognitiv, PIRLS, ePIRLS, "8" va "9" kodlari, 3-sonli PIRLS axborotnomadagi matnlar, Afrika Karkidonlari va Okspeker qushlari.

**Ключевые слова:** Международная оценка PIRLS, ePIRLS, коды "8" и "9", тексты в Бюллетене PIRLS 3, африканский носорог и птицы Oxspect.

**The keywords:** International Assessment, PIRLS, ePIRLS, Codes "8" and "9", Texts in PIRLS Bulletin 3, African Rhinoceros and Oxspect Birds.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga kirishilgan bo‘lib, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan PIRLS, TIMSS, dasturlariga doir o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi, ijodiy fikrlashini baholash va rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi yoshlarining ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun a‘zo bo‘lingan Xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishga tayyorgarlik jarayonlari uchun “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan bo‘lib, shu asosida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan.<sup>5</sup>

Milliy tadqiqot, Inson kapitali indeksi – 2020 loyihasi doirasidagi ta’lim sifati komponenti uchun TIMSS dasturi talablari asosidagi tadqiqot, REDS tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin.

PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsad, ya’ni badiiy tajriba orttirish hamda Axborotni olish va undan foydalanishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan AXBOROTNOMA 2021-3 (Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami (topshiriqlar to‘plami) Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan o‘tkaziladigan PIRLS (The Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqoti doirasida foydalanilgan materiallar asosida tuzilgan topshiriqlardan foydalanildi.

Axborotnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ilmiy kengashining 2021-yil 29-

---

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.

martdagi yig‘ilish (1-sonli bayonnomasi) qaroriga asosan tavsiya qilingan axborotnoma asosida qilingan tajriba ishlari ham maqolada yoritib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmonining 175-176-bandlarida quyidagi vazifalar belgilangan edi:<sup>6</sup>

2023-yil 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi TIMSS – 2023 xalqaro baholash dasturida O‘zbekiston ishtiroki ta‘minlash;

xalqaro dastur haqida targ‘ibot-tashviqot, seminar va treninglar tashkil etish, maktab direktorlari va o‘qituvchilarning salohiyatini rivojlantirish;

xalqaro tashkilotlar tomonidan tanlab olingan 166 ta maktabda moddiy-texnika bazani mustahkamlash, internet tarmog‘iga ulanish sifatini oshirish hamda tadqiqotlarni tashkil etish;

2024-yilda xalqaro darajada e‘lon qilinadigan tadqiqotlar natijalari asosida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish;

O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro PISA – 2025 tadqiqot dasturida O‘zbekistonning ishtirokini ta‘minlash.

Iqtisodiy hamkorlik taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan shartnomaga muvofiq a‘zolik badallarini to‘lash;

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlikda tadqiqotning 2024-yildagi tajriba-sinovi hamda 2025-yildagi asosiy sinovlarini tashkil qilish hamda tadqiqotda maktablarning muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Ma‘lumki, o‘qish savodxonligi insonlarning o‘qishdan ko‘zlangan maqsadlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ko‘pgina yosh o‘quvchilar endigina o‘qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o‘quvchilarga o‘zlarini o‘rab turgan muhit haqida informatsion va savollarga javob beruvchi ma‘lumotlarga boy matnlarni o‘qiydi. O‘quv dasturiga ko‘ra, kitob va boshqa materiallardan ma‘lumot olish uchun o‘qish muhim ahamiyatga ega ekanligi bois, yosh o‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirib, o‘rganish uchun o‘qishlari kerakligi talab qilinmoqda.

2021-yilda o‘tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 60 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimiz 4-sinf o‘quvchilari ham ilk marotaba ishtirok qildilar. 57 mamlakat ichida 49-o‘rinni egalladilar. Bu natija biz uchun qoniqarli bo‘lmadi. Buning natijalarini yaxshilash uchun, albatta, o‘qituvchilarni xalqaro baholash dasturi bo‘yicha bilimlarini, metodlarini mustahkamlab olishimiz zarur.

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 175-176-bandlari, PF-60-sonli, 28.01.2022.


PIRLS xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning matni o'qib tushinishlari, yangidan yangi g'oyalar, boshqa madaniyatlar va turli mamlakatlar haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar o'quvchilar, hattoki ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'plandi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalari qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Tadqiqotlar doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro munosabat o'rnatilsagina matnning mazmuni anglashiladi va o'qishdan ko'zlangan maqsadga erishiladi. PIRLS baholash dasturi uchun matnlarni saralab olishda asosiy jihat o'qishdan ko'zlangan maqsadlardan kelib chiqib, bir necha matn turlarini taqdim etishdir. Bunda, asosiy maqsad o'quvchilar uchun ham maktabda ham maktabdan tashqarida olib boriladigan o'qish mashg'ulotlariga o'xshash muhit yaratishdan iboratdir. O'quvchi bu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lib, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi.

O'qish savodxonligining ta'riflari juda ko'p. O'qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan hamda jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir.

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalana olish, ular ustida mulohaza yurutish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati hamdir. O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholash ikkita keng qamrovli maqsadga qaratilgan.



O'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birdek muhim bo'lgani bois, PIRLS dasturi har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topadi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

*1. DIQQATNI JAMLASH VA ANIQ KO'RSATILGAN MA'LUMOTNI TOPISH*



*2. TO'G'RIDAN TO'G'RI XULOSALAR CHIQUARISH*



*3. TIL VA MATN ELEMENTLARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH*



*4. G'OYALAR VA MA'LUMOTNI TALQIN QILISH VA UYG'UNLASHTIRISH*



Barcha mamlakatlar elektron baholashga o'tishga tayyor emasliklari sababli PIRLS – 2021 ikki xil, ya'ni raqamli va qog'oz shaklda o'tkaziladi. Shuningdek, raqamli PIRLS simulyatsiyasi qilingan internet muhitida ma'lumotni onlayn o'qishni baholaydigan elektron PIRLS (ePIRLS) ni o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda PIRLS tadqiqotini o'tkazishning qog'oz shakli tanlangan. Savollardan to'plamidan iborat bo'lgan ikkita bo'lim yoki qismni bajarish uchun o'quvchilarga 40 daqiqa vaqt beriladi. Baholashda to'rtta variant beriladi. To'rtta variantli har bir savolda bitta to'g'ri javob bo'ladi. Bu turdagi savolga berilgan to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

PIRLS tadqiqotida yana ikkita savol turidan foydalanadi, bular:

1. O'quvchilar tomonidan savolga bir necha to'g'ri tanlanadigan savollar (odatda bu turdagi savollarda "tegishli bo'lgan barcha javoblarni belgilang" iborasi qo'llaniladi);

2. O‘quvchilar matnda tasvirlangan yoki hikoya qilingan voqelarni matnga asoslangan holda to‘g‘ri ketma-ketlikda belgilashlari lozim bo‘lgan savollar.

### **Ochiq savollarni baholash mezonlari**

Ochiq savollarni baholashda **bir** ballik, **ikki** ballik va **uch** ballik baholash mezonlari joriy etiladi.

#### **Bir ballik savollarni baholash mezonlari**

Qubul qilinadigan javob (1 ball)

Qabul qilinmaydigan javob (0 ball)

#### **Ikki ballik savollarni baholash mezonlari**

To‘liq tushunish (2 ball)

Qisman tushunish (1 ball)

Mutlaqo tushunmaslik (0 ball)

#### **Uch ballik savollarni baholash mezonlari**

Keng tushunish (3 ball)

Qoniqarli tushunish (2 ball)

Minimal tushunish (1 ball)

Qoniqarsiz tushunish (0 ball)

Shuningdek, izohlanmagan javoblar “0” ball qo‘yiladi. Ochiq savollarda “javobsiz” holat (javob berilmagan) ni qanday kodlashning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Buning uchun ikkita kod belgilangan: “8” va “9” kodlari. Javob bermaslik holatlaridagi ushbu kodlarni tayinlashda quyidagi ko‘rsatmalarga amal qilishi lozim.

PIRLS tadqiqotlarida foydalanilgan quyidagi matn va topshiriqlar berilgan:<sup>7</sup>

1. AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI
2. XALOSKOR DELFIN
3. TIKUVCHI
4. CHORINING QOBILIYATI
5. MARVARID
6. OZUQA IZLAB
7. KUCHUK TARBIYALASH


### **AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI**

Jadval asosida karkidon va okspekerlar haqida ma’lumotlar keltirilgan

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan AXBOROTNOMA Toshkent – 2021. A.A.Ismoilov, X.J.Daminov, Q.K.Karimberdiyev, Z.Sh. Islomova

KARKIDON	OKSPEKER
Rangi: kulrang	Rangi: jigarrang
Og'irligi: 3600 kilogramm	Og'irligi: 0,5 kilogramm
Bo'yi: 1,8 metr	Bo'yi: 20 santimetr
Oziqlanishi: o't va barglar	Oziqlanishi: hasharotlar va kanalar

“Karkidonlar va okspekerlar bir-biriga yordam beradi. Ular bir-biridan juda katta farq qiladigan jonzotlardir. Karkidon – juda katta, quruqlikdagi hayvon. Faqatgina fil undan kattaroqdir. Okspeker qushi esa juda kichkina. Okspekerlar karkidonlarning ustida yashaydilar.” Ma'lumotlar berilgan bo'lib shu asosida ochiq va yopiq test orqali savollarga javob beradilar.



PIRLS xalqaro dasturida o'quvchilarning o'qib o'zlashtirish ko'rsatkichlarni rivojlantirishda o'qitish jarayonining ahamiyati, o'qitish jarayonini tashkil etishda birgalikda samaradorlik, maktab ishchi-xodimlari, ota-onalar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ishonch maktabda ijobiy o'quv jarayonini yaratishda xizmat qiladigan omil hisoblanib, bu omillar, o'z navbati, ijobiy o'quv muhitini hosil qiladi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida Rossiyalik va Singapurlik o'quvchilar matni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatgan. Shuningdek,



Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi.

Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq:

uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi;

ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati;

bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi.

Yuqoridagi omillar qarab PIRLS-o'qish savodxonligini yuqori natijalarga chiqarish uchun yana bir qancha omillar ishlab chiqqan holda, ilmiy asoslangan dalillar asosida harakat qilinsa, albatta, eng yuqori o'ntalik mamlakatlar qatoriga chiqishimiz mumkinligi aniqlanmoqda.

Ushbu bo'lim tizim darajasidagi baholashga qaratilgan – boshqacha aytganda, tizim darajasidagi maqsadlarga erishish uchun butun mamlakat maktablarida o'tkaziladigan xalqaro baholashga bo'layotgan katta e'tibor katta, ammo shuni ta'kidlash kerakki, kundalik baholash o'qituvchilarning professional tajribasining muhim elementi bo'lib, barcha o'qituvchilardan baholash savodxonligining yuqori darajasiga ega bo'lishni talab qiladi.

**SAN'ATSHUNOSLIK****TASVIRDAGI OGAHIY****UO'K: 338.2**

**Sobirjon  
SOBIROV**

Xorazm Ma'mun  
akademiyasi kichik  
ilmiy xodimi

**Annotatsiya:** maqolada O'zbekiston xalq rassomi To'ra Quryozovning ijodi yoritilgan. Rassomning ilk ishlaridan to bugungi kungacha yaratgan asarlari tahlil etilgan.

**Аннотация:** в статье анализируется жизнь и творчество художников, создавших образ Пахлавона Махмуда, известного как борец, поэт и кожевник.

**Annotation:** this article analyzes the life and work of the artists who created the image of Pahlavon Mahmud, who is famous as a wrestler, poet, and tanner.

**Kalit so'zlar:** To'ra Quryozov, Ogahiy, "Turkman qizi" – 1960, "Xiva manzarasi" – 1961, "Jumagul portreti", "Gulsara portreti" – 1967, "Prorab Abdulla portreti", "Chavgon o'yini".

**Ключевые слова:** художник, портрет, графика, борец, кожевник, поэт, Индия, Иран, Хорезм.

**The keywords:** painter, portrait, graphics, wrestler, leather worker, poet, India, Iran, Khorezm.



O'zbekiston xalq rassomi To'ra Quryozov ijodida ulug' shoir, tarixchi olim va mohir tarjimon Muhammadrizo Ogahiy siymosi va u yashagan davr tasviri alohida o'rin tutadi. To'ra Quryozov Ogahiy siymosini birinchilardan bo'lib yaratgan ijodkordir. Rassom 1967-yili yaratgan "Ogahiy portreti" ko'plab respublika ko'rgazmalarida namoyish etilgan. Uning o'sha yillari yaratilgan "Mushoira" asari ham Ogahiyga bag'ishlangan.

Ijodkor ilk ijodini kichik hajmdagi portret va manzaralardan boshlab, keyinchalik ko'plab yirik tarixiy asarlari tomoshabinlar hurmatini qozongan. XX asrning 60-yillaridan respublika va xorijiy ko'rgazmalarda o'z ijodini keng

O'zbekiston xalq rassomi To'ra Quryozov ijodida ulug' shoir, tarixchi olim va mohir tarjimon Muhammadrizo Ogahiy siymosi va u yashagan davr tasviri alohida o'rin tutadi. To'ra Quryozov Ogahiy siymosini birinchilardan bo'lib yaratgan ijodkordir. Rassom 1967-yili yaratgan "Ogahiy portreti" ko'plab respublika ko'rgazmalarida

namoyish etib kelmoqda. 1960-1970-yillarda Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyida rassom bo‘lib ishlagan, aynan mana shu yillar To‘ra Quryozovning rassom bo‘lib shakllanishida taniqli rassom, etnograf, arxeolog Igor Saviskiy bilan hamkorligi katta ahamiyat kasb etdi. I.Saviskiyning ko‘plab etnografik, arxeologik ekspeditsiyalarida qatnashishi yosh rassom T.Quryozov ijodida chuqur iz qoldirdi va uning ijodiy tafakkurini boyitdi. 1970-1975-yillarda O‘zbekiston rassomlar uyushmasining Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyati hududiy bo‘limi rahbari lavozimida faoliyat yuritgan. 1975-yildan boshlab Toshkent shahrida yashab, ijod qilib kelmoqda.

Rassom ijodida dastlab zamondoshlari portretlarini yaratish bosh mavzu bo‘lgan:

“Turkman qizi” – 1960, “Xiva manzarasi” – 1961, “Jumagul portreti”, “Gulsara portreti” – 1967, “Prorab Abdulla portreti”, “Chavgon o‘yini” – 1980 kabi asarlari shular jumlasidandir.


Rassom To‘ra Quryozov ijodiy faoliyati davomida turli mavzudagi asarlari bilan san’at ixlosmandlarini xursand qilib kelmoqda. Jumladan, portret janridagi, tarixiy shaxslar siymosi va tarixiy me‘moriy obidalar tasviri aks ettirilgan kartinalari san’at ixlosmandlari va ijodkorlar tomonidan yuksak baholangan.

1980-yillardan boshlab rassom ijodi yanada yuksakroqqa ko‘tariladi va endi ijodkor Xorazmning qadimiy va tarixiy etnografiyasi, madaniyati, davlat arboblari, allomalarini ramziy va majoziy unsurlar vositasida tasvirlashga qo‘l uradi: “Ilon hayqirig‘i”, “Tuproqqal’a” – 1987, “Alvido, orol” – 1991, “Olloqulixon madrasasi” – 1991, “Xiva bozorida, “Jaloliddin jangda” – 1991, “Uyg‘onish” – 1993, “Najmiddin Kubro” – 1996, “Jaloliddin Manguberdi” – 1998 (Ushbu asar qahramon portretining namunasi sifatida qabul qilingan), “Ma‘mun akademiyasi”, “Al-Beruniy”, “Pahlavon Mahmud”, “Ogahiy” siymolarini yaratgan.

To‘ra Quryozov ijoddan hech qachon charchamagan, doimo izlanishda va yangilik yaratish harakatida bo‘lgan serqirra ijodkordir.

1990 – 1991-yillarda Qiyot qishlog‘ida Ogahiy memorial uy muzeyi tashkil etilib, uni bezatish ishlariga To‘ra Quryozov rahbarlik qiladi. Rassom muzey uchun kartinalar bilan birga devoriy syujetlar ham ishlaydi. Hatto Sant-Peterburg shahriga borib Saltikov-Shchedrin kutubxonasida, Ogahiy kitoblarining maketini tayyorlaydi. Memorial uy muzeydan Ogahiy asarlariga akvarelda ishlangan illustratsiyalar, Xiva va Qiyot qishlog‘i manzaralari ham o‘rin olgan.

Hozir To‘ra Quryozov ustaxonasida Ogahiyga bag‘ishlangan yigirmadan ziyod asar bor. Bir asarda shoirning o‘z bog‘ida ijod bilan band payti tasvirlangan. Ma‘lumki, Ogahiy umrining so‘nggi yillarida otdan yiqilib, oyog‘i singan, shu bois qish oylari sovuqdan bezib, bahorni orziqib kutgan. Bahorga atab ko‘plab she‘rlar bitgan. Syujetli portretida bu jarayon mohirona aks ettirilgan.



Rassom ulug‘ shoir qiyofasini tasvirlashda qiyotliklardan andoza olgan. Shu qishloqda bir yilcha yashab, qishloq odamlari yuz tuzilishini obdan o‘rgangan, ko‘plab qalamtasvir suratlar ishlagan, Ularni umumlashtirib, Ogahiy siymosini polotnoga muhrlagan. Qalamtasvirlerini ko‘zdan kechirib, nihoyatda rang barang qiyofalarga duch kelamiz...

To‘ra Quryozov Ogahiyning “Taviz ul-oshiqin” asaridan ilhomlanib yaratgan suratlar ham e‘tiborga sazovordir. Ularning har birida davr va makon ruhi yaqqol sezilib turadi.



Rassom asarlari Toshkent davlat san‘at muzeyi, O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati muzeyi, Nukus davlat muzeyi, “Ichon qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasi, Urganch zamonaviy galereyasi va xorijiy xususiy galereyalarida o‘rin olgan.

Uning ijodiy mehnatlari hukumat, Vatanimiz, xalqimiz tomonidan yuqori baholandi. 2008-yil To‘ra Quryozov Badiiy akademianing oltin medali bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov Farmoniga binoan 1999-yil rangtasvirchi rassom To‘ra Quryozov “O‘zbekiston xalq rassomi” yuksak unvoniga sazovor bo‘ldi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

7-8 (17)  
2024-yil, iyul-avgust.

Bosh muharrir: M.Eshmurodov  
Mas’ul kotib: U.Bekimmetov  
Musahhih: J.Sobirov  
Texnik muharrir: M.Kuranbayev  
Navbatchi: J.Sobirov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni

№062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 10:00. Topshirildi: 10:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 4,75 b.t. Buyurtma №32/24.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22